

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

ATABAYEVA MEHRINISO RUZMAT QIZI

O'zbek tilshunosligi kafedrasining

5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi) ta'lim
yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ANTROPOTSENTRIK
QARASHLAR

Ilmiy rahbar:



f.f.d., prof. Z.Do'simov

IMZONI TASDIQLAYMAN
KADRLAR BO'LIMI BOSHIGI

Urganch - 2019

MUNDARIJA

KIRISH.	3
----------------------	----------

I BOB. TILSHUNOSLIKNING TADQIQOT YO‘NALISHLARI

I.1. Tilshunoslik va falsafa.....	5
I.2. Tilshunoslik va mantiq.....	12
I.3. Tilshunoslik va tarix.....	17
I.4. Tilshunoslik va adabiyot.....	22

II BOB. MATNNING ANTROPOTSENTRIK TALQINI.....26

II.1. Nutqning kognitiv-semantik tarkibi.....	26
II.2. Matnning psixolingvistik xususiyatlari.....	36
II.3. Matnda lingvokulturologik birliklarning aks etishi.....	42

XULOSA.....	48
--------------------	-----------

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	50
----------------------------------	-----------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Tilshunosligimiz yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy tadqiqotlarga Respublikamiz Birinchi Prezidenti tomonidan alohida e'tibor qaratilib: "Jahon va mamlakatimiz tarixini, O'zbekistonning madaniy va ma'naviy merosini, o'zbek tili, adabiyoti, folklorining tarixiy va hozirgi rivojlanishini har tomonlama tadqiq qilish"¹ muhim vazifalardan sifatida qayd qilinadi. Shunga ko'ra, o'zbek tilshunosligining yangi davriga oid, ya'ni antropotsentrik qarashlar masalasi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Mustaqillik davri talabi, O'zbekistonda tilshunoslikning hozirgi holati bu sohada yangi yo'nalishlarning shakllanishini taqozo qilmoqda. Ularning diqqat-markazida "yangi davr o'zbek tilshunosligi" masalasini turli daraja va ko'rinishda namoyon qiluvchi "til va madaniyat", "til va jamiyat", "til va shaxs", "milliy til va milliy tafakkur" kabi muammolar turadi. O'zbek tilshunosligida XX asr so'ngida shakllanib, jadal rivojlanayotgan tilshunoslik fanining yangi yo'nalishlari sotsiologiyaviy, sistem tilshunoslik, til va nutqni farqlash, til va millat, jamiyat va til kabi ilg'or fan yo'nalishlari aynan shu masalalar taqdiri bilan shug'ullanmoqda.

Tilni antropotsentrik tadqiq etish muayyan xalqning milliy o'ziga xosligini ko'rsatib berish demakdir. Zero, «Ona tili – bu millatning ruhidir»². O'zbek tilshunosligida yaratilgan bir qator tadqiqotlarda til millat mentalitetining in'ikosi ekanligi haqidagi ilmiy qarashlar o'zbek tili birliklarini tahlil etish orqali ko'rsatib berildi. Ana shu ilmiy qarashlarni yanada boyitish va takomillashtirish ehtiyoji mazkur tadqiqot mavzusining dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Badiiy matnning antropotsentrik, xususan, kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokulturologik jihatlari shu vaqtgacha o'zbek tilshunosligida yetarlicha tahlil qilingan emas. Bu esa ushbu mavzuni tadqiq qilish zaruratini tasdiqlaydi.

¹Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида //Хафсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. –Б. 266.

²Каримов И. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 83.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi o‘zbek tilshunosligidagi antropotsentrik qarashlar masalasini tahlil qilish hamda ushbu tilshunoslik muammolarini ko‘rsatib berishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- tilshunoslikning tadqiqot yo‘nalishlarini aniqlash;
- tilshunoslik va ijtimoiy fanlar munosabati;
- nutqning kognitiv-semantik tarkibini belgilab olish;
- matnning psixolingvistik xususiyatlarini ochib berish;
- matnda lingvokulturologik birliklarning aks etishi;
- antropotsentrik tilshunoslikning yangi davr tilshunosligidagi o‘rni.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotidagi eng yangi davrni har tomonlama tadqiq qilish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, ushbu davr tilshunosligiga bag‘ishlangan ishlar kam darajada. Bu esa ishning ilmiy yangiligini belgilab beradi.

Ishning tadqiqot metodlari. Belgilangan bu vazifalarni hal qilishda, misollar tahlilida tavsifiy, qiyosiy tahlil hamda sinxron metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida olingan nazariy va amaliy ma’lumotlardan “O‘zbek tilshunosligi tarixi”, “Tilshunoslik nazariyasi”, “Sotsiolingvistika” fanlarida foydalanish mumkin. Bularning barchasi ishimizning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotning predmeti va obykti. Ishimiz obykti antropotsentrik tilshunoslik va uning yo‘nalishlari bo‘lib, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini lisoniy jihatdan tahlil qilishda badiiy matnlar asosiy material sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining tuzilishi va umumiy hajmi. Bitiruv-malakaviy ishi kirish 2 ta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Uning umumiy hajmi 53 sahifadan iborat.

I BOB. TILSHUNOSLIKNING TADQIQOT YO‘NALISHLARI

Til o‘zi bilan bog‘liq bir qancha hodisalar bilan qanchalik uzviy aloqada bo‘lmasin, eng avvalo, ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyatning aloqa-aralashuv ehtiyojini qondirish talabi bilan yuzaga kelgan va ana shu jamiyatning taqdiri, tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, madaniyati va hokazolar bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi. Shunday ekan, uning ijtimoiy fanlar sirasiga kirishi tabiiydir. Boshqa ijtimoiy fanlardan farqli ravishda tabiiy fanlar bilan tutash nuqtalari mavjud. Demak, ijtimoiy fanlar sistemasida tilshunoslik chegara o‘rinni egallaydi. Bu chegara tabiiy fanlar bilan ijtimoiy fanlarning oralig‘ini tashkil etadi.

Biz ishimizning ushbu bobida tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqadorligi hamda ijtimoiy fanlar orasida tutgan o‘rni xususida to‘xtalamiz.

I.1. Tilshunoslik va falsafa

Bizni qurshab turgan olam sistemaviy xususiyatga ega bo‘lganidek, olamning bir uzviy qismi bo‘lgan insoniyat olami ham sistemadir. Avvalo, insoniyat olami insonlar va ularning o‘zaro munosabatidan tashkil topadi. Demak, insoniyatni tashkil etgan inson o‘zi alohida yasholmaydi. Shaxs boshqa shaxslar bilan munosabatda yashaydi. Ana shu munosabat ijtimoiy, ya’ni insonlar munosabatidan tashkil topgan muayyan jamiyatga xos munosabatlar sanaladi.

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy munosabatlarni o‘rganuvchi fanlar ijtimoiy fanlar hisoblanadi. Ma’lum jamiyatga xos individlarning o‘ziga xos ruhiyati, badiiy-estetik olami, nutqiy xususiyati kabi jihatlari borki, bu tomonlar gumanitar fanlarning tekshirish obyekti sanaladi.

Ijtimoiy fanlar bilan gumanitar fanlar o‘rtasida katta to‘siq, chegara mavjud emas. Ayni bir fan ham ijtimoiy, ham gumanitar fanlarga aloqador bo‘lishi mumkin. Masalan, tilshunoslik tilning aloqa vositasi sifatidagi vazifasini, ijtimoiy mohiyatini ochish bilan ijtimoiylik xususiyatiga ega bo‘lsa, muayyan individ nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bilan gumanitarlik kasb etadi. Shuningdek, psixologiya ham individual shaxslar psixologiyasini o‘rganish bilan

birgalikda jamiyatga xos umumiy psixologiyani ham o'rganadi (etnopsixologiya). Bu esa ijtimoiy fanlar bilan gumanitar fanlar o'rtasida o'zaro zich aloqa mavjudligini, ularni bir-biridan ajratib bo'lmashligini ko'rsatadi. Shu bois har ikki tarmoq birlashtirilib, ijtimoiy-gumanitar fanlar deb yuritiladi.

Ijtimoiy fanlar tarkibiga falsafa, mantiq, iqtisodiy nazariya, pedagogika, psixologiya, tarix, adabiyot kabi bir qancha fanlar kiradi.

Har qanday fan amaliy bilish ustiga qo'yilgan nazariy bilishga asoslanadi. Bilish esa falsafa fanining asosi sanaladi. Nazariy falsafa asoschisi Kant uning o'rganish predmeti narsalar (tabiat va jamiyat) emas, balki insonning bilish faoliyatini ilmiy tekshirishdan, inson aqliy faoliyatini aniqlashdan iborat ekanini ta'kidlagandi.

Falsafa insonning o'z mohiyatini anglashi, borliqning turli sohalariga oid hodisa va voqealar haqida ularning tub mohiyatini ifodalaydigan umumiy xulosalar chiqarishi demak. Falsafiy tafakkur olamdagi narsa va hodisalarni fikrda umumlashtirib, o'zaro bog'liqlikda va rivojlanishda o'rganish, ularning mohiyatini chuqurroq va to'laroq bilishdir. Falsafaning markazida borliq va uni bilish muammosi yotadi.

Til ham borliqdagi kishilarning aloqa vositasi sifatida inson bilimiga beriladi. Shunday ekan, har qanday fan, jumladan, tilshunoslik ham falsafa bilan uzviy bog'lanadi. Barcha fanlar kabi tilshunoslik uchun ham u yoki bu falsafiy yo'nalish tadqiqot metodologiyasi bo'lib xizmat qiladi.

Tilshunosning o'z tadqiqoti yuzasidan qanday xulosaga kelishi, ilmiy haqiqatni qay darajada obyektiv ochib berishi uning qanday falsafiy yo'nalishga asoslanishiga bog'liq. Shuning uchun har bir tilshunos muayyan falsafiy yo'nalishga asoslanmog'i lozim.

Masalan, G'arbiy Ovrupoda umumiy tilshunoslikning otasi hisoblanuvchi Vilgelm Gumboldt tadqiqotlari uchun I.Kant va Gegel falsafasi metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

I.Kantning falsafiy qarashlari «Sof aql tanqidi», «Amaliy aql tanqidi» va «Hukm qobiliyati tanqidi» kabi asarlarida o'z ifodasini topgan. I.Kantning

ta'kidlashicha, bizning ongimizdan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan holda «narsalar olami» mavjud. Bunday narsalarni u «narsa o'zida» deb nomlaydi. Bilish ana shu «narsa o'zida»ning sezgi organlarimizga ta'siri natijasida hosil bo'ladi. Uning fikricha, sezgi organlarimizga ta'sir qiladigan «narsa o'zida»ning sir-asrorlarini bilish mumkin emas. U «transsentdent» xususiyatga ega.

V.Gumboldtning lingvistik ta'limotida I.Kantning ana shu qarashi markaziy o'rinni egallaydi. U tilning u yoki bu hodisalarini bilib bo'lmashligi haqida takror-takror fikr bildiradi. Tilning «xalq ruhi» bilan aloqadorligi, hatto tengligini ta'kidlagan holda, bu aloqadorlik tushuntirib bo'lmaydigan sir ekanini ko'rsatadi.

I.Kantning falsafa tarixidagi katta xizmati shundaki, u obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni o'zaro aloqadorlikdaligini ta'kidlaydi va mazkur aloqadagi har bir narsa va hodisa uzluksiz ichki rivojlanishda ekanini, rivojlanish ichki ziddiyatlarga asoslanishini, aql tabiatan ziddiyatli xarakterga ega, shuning uchun dialektik ziddiyatlar zarurligini ko'rsatadi.

I.Kantning mazkur g'oyalaridan ilhomlangan V.Gumboldt tilning sistema, til sistemasi tarkibidagi har bir a'zo esa o'zaro munosabatda ekanini va sistema a'zolari o'rtasida ziddiyatli munosabat mavjudligini, ana shu ziddiyat har qanday taraqqiyotning asosi ekanini bayon qiladi. Shu asosda V.Gumboldt o'zining lingvistik antinomiya haqidagi ta'limotini yaratdi.

Mashhur nemis faylasufi A.Gegelning «Ruh fenomenologiyasi» asarida bayon qilingan mutloq ruh haqidagi g'oyasi ham V.Gumboldtga katta ta'sir qildi. Gegelning fikricha, dastlab olam va tafakkur ayniyati bo'lgan va bu ayniyat dunyoning substansional (zotiy) asosini tashkil etgan. Tafakkur faqat subyektiv inson faoliyatigina emas, balki obyektiv mohiyat, barcha mavjudotning birlamchi manbayi bo'lgan. Tafakkur modda, tabiat holida o'zini «begonalashtiradi». «Absolyut g'oya»ning oliy taraqqiyot bosqichi «absolyut ruh», ya'ni insoniyat, insoniyat tarixi sanaladi.

Gegelning bu g'oyasi ta'sirida V.Gumboldt tilning «xalq ruhi» ekani haqidagi fikrlari dunyoga keldi.

Gegel tarixiy jarayonining dialektik xarakterini tadqiq qilar ekan, til taraqqiyotig‘a alohida ahamiyat beradi. U tilni nazariy aqlning yaratuvchisi hisoblaydi. Chunki til uning tashqi ifodasi sanaladi. Shu bois Gegel til taraqqiyotini ikki bosqichga bo‘ladi:

1) hali tili rivojlanmagan holatida bo‘lganda bu tilda gaplashuvchi etnik guruhlar taraqqiyotning yuqori bosqichiga erishdilar;

2) jamiyat va davlat madaniy taraqqiyotga erishuvi natijasida uning tili kambag‘alroq bo‘ldi.

Gegelning til taraqqiyotini bunday ikki davrga ajratishi V.Gumboldtga katta ta’sir etdi. V.Gumboldt Gegelning yuqoridagi g‘oyasi asosida tillarni ikki guruhga – takomillashgan va takomillashmagan tillarga bo‘ladi. U tillarni bunday ikki guruhga ajratishda muayyan xalqning o‘z tilida obyektiv borliqni yoki subyektiv faoliyatni ifodalay olish imkoniyatiga asoslanadi. Uning fikricha, barcha tillar bir xil qurilishga ega bo‘lishi mumkin emas. Chunki mazkur til egalari va ularning yashash sharoiti bir xil emas. Bundan tashqari, turli xalqlarda tilning ichki shakli bilan moddiy (tovush) tomonini sintezlashtirish shakli va darajasi turlicha. Tillarni yuqoridagi kabi ikki guruhga ajratishda ularning ichki shakli bilan moddiy tomoni o‘rtasidagi sintezlanish darajasi asos qilib olinadi.

V.Gumboldtning e’tirof etishicha, takomillashmagan tillarda gaplashuvchi xalqlarda tilning ichki shakli bilan moddiy tomoni o‘rtasida sintezlashish darajasi tabiatan kuchsiz yoki ma’lum holat ta’sirida buziladi. Til qurilishi oliy darajada takomillashgan tillarda esa til va tafakkur harakatining to‘liq qo‘shiluvini kuzatiladi. Ana shunday qarash asosida V.Gumboldt flektiv tillarni takomillashgan, agglyutinativ va inkorporasiyali tillarni esa takomillashmagan tillar deb hisoblaydi. Shu bilan birga, u tilni xalqning aqliy taraqqiyotini ko‘rsatuvchi vosita sifatida tilning yuqoridagi ikki shaklidan qaysisiga mansubligiga ko‘ra bu tillarda gaplashuvchi xalqlarni ham aqliy rivojlangan va rivojlanmagan xalqlarga bo‘ladi. Bu esa V.Gumboldt falsafiy qarashidagi cheklanganlikning yorqin ifodasi, Gegel falsafasidagi eng ojiz tomonning ta’siri natijasidir.

O'zbek tilshunosligada sho'rolar davrida barcha fanlar uchun marksistik ta'limot metodologik asos qilib olindi. Bu ta'limotning juda ko'p jihatlari Kant va Gegel falsafasidan olingan bo'lsa-da, lekin moddiy borliqda nima birlamchi – ongmi yoki materiyami degan savol falsafaning bosh masalasi sifatida qo'yildi va materiyaning birlamchiligi olg'a surildi. Shunga ko'ra, faylasuflar ham ikki guruhga – materialistlar va idealistlarga ajratildi.

Falsafa tarixida minglab yillar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan, bir-biri bilan uzviy bog'liq turli ta'limotlar sun'iy ravishda materializm va idealizm oqimlariga bo'lib yuborildi.

Insoniyatning ilmiy, ma'naviy, ijtimoiy kamolotiga katta hissa qo'shgan olimlarning merosi chekkaga uloqtirildi.

Istiqlol qo'lga kiritilgandan so'ng milliy madaniyatimiz, milliy an'analarimiz, boy ma'naviyatimizni tiklashga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Shunday ekan, ilmiy tadqiqotlarning kompassi vazifasini bajaruvchi metodologik asosni ham qayta ko'rib chiqish payti keldi. Bizning mafkuramiz fikrlar xilma-xilligi, erkin fikrlashga keng yo'l ochgan mamlakatimiz istiqboliga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidan iborat bo'lishi kerak. Chunki fikrlar xilma-xilligi rivojlanish asosidir. Shuning uchun birorta falsafiy sistema bizning yagona mafkuramiz manbai bo'lolmaydi.

Ajdodlarimiz uchun ulkan kashfiyotlar qilish imkoniyatini yaratib bergan va G'arb fanining ravnaqi uchun ham jiddiy ta'sir ko'rsatgan metodologiyani tiklash va undan o'rinli foydalanish payti keldi. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy qo'llagan tadqiqot metodologiyasi bilan Ovrupo olimlari tayangan falsafiy asoslarning eng yaxshi jihatlardan ijodiy foydalanish lozim. Ularning umumiy jihatlari quyidagilar:

1) obyektga substansional (zotiy) yondashuv. Bunda umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik dialektikasini hisobga olish;

2) obyektning ziddiyatli tabiatini ochish. Har qaysi tadqiqot obyektini ichki ziddiyatlardan iboratligini, ana shu ziddiyatlar obyektning uzluksiz rivojlanishi asosi ekanini ko'rsatish;

3) obyektning sistemaviy xususiyatini yoritish. Buning uchun har qaysi obyekt muayyan katta butunlikning uzviy bir bo‘lagi ekani, ayni paytda, u muayyan ichki unsurlarning o‘zaro munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik ekanini namoyon qilish;

4) shakl va mazmun dialektikasini e‘tiborga olish. Ularning o‘zaro munosabatini yoritish;

5) teng qimmatli elementlar o‘rtasida va turli qimmatli birliklar (butun bilan bo‘lak, tur bilan jins) o‘rtasidagi munosabat turlarini yoritish va h.k.

Substansiya (lot. substantia – «mohiyat») atamasi falsafada antik davrdan buyon ishlatiladi. Lekin falsafa tarixida mazkur atama xilma-xil tushunchalarni ifodalash uchun qo‘llanildi.

Antik davr faylasuflari substansiya atamasi ostida olamdagi barcha narsa va hodisalarning asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsani tushunadilar.

O‘rta asr Sharq falsafasining Al-Kindiy, Ar-Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd singari namoyandalari substansiyani hamma narsaning asosi, ularning mohiyati deb izohlaydilar.

Antik, o‘rta asr va keyingi davrdagi bir qator faylasuflar ham substansiya deganda barqaror, o‘zgarmas mohiyat bilan uning moddiy dunyodagi o‘zgaruvchan, beqaror, xilma-xil ko‘rinishlari dialektikasini e‘tiborga oladilar. Ana shu dialektik bog‘lanishni ifodalash uchun G‘arbda substansiya va aksidensiya, Sharq falsafasida javhar va oraz atamalari qo‘llandi. Substansiya, javhar atamalari bevosita kuzatishida berilgan bir qancha moddiy narsalar zamirida yashiringan va ularning har birida takrorlanadigan umumiy asos, mohiyatni, aksidensiya, oraz atamalari esa muayyan asos, mohiyatning bevosita kuzatishida sezgi a‘zolarimiz bilan fahm qilinadigan bir qancha moddiy ko‘rinishlarini ifodalaydi.

Falsafadagi imkoniyat va voqelik dialektik bog‘lanishi ham til va nutq dixotomiyasida yorqin o‘z ifodasini topadi.

Imkoniyat yuzaga chiqmagan, lekin yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan voqelikdir. Uning yuzaga chiqishi voqeliklarni vujudga keltiradi.

Agar bu aloqadorlikni tilshunoslik asosida ko'rib chiqsak, til-nutq dixotomiyasida barcha til birliklari imkoniyat, ularning nutq jarayonida turli xil moddiy ko'rinishlari voqeliklar sanaladi.

Bulardan tashqari, dialektikadagi taraqqiyot qonunlari: miqdor va sifat o'zgarishlari birligi qonuni, qarama-qarshiliklar birligi qonuni, inkorni inkor qonuni tilda ham amal qiladi.

Dialektikaning bir shakli sinergetikadir. Sinergetika tabiat va jamiyat taraqqiyotida oraliq, o'tkinchi holatlarning bo'lishi mumkinligini e'tirof etadi. U taraqqiyot jarayonida beqaror holat bilan barqaror holat o'rtasidagi qonuniyatga tayanadi. Barqarorlik qonuniyat va sababiyat natijasidir. Uni oldindan bilish, boshqarish mumkin. Barqarorlik hodisaning mohiyatini tushunish uchun unga teran va sinchkov nazar tashlash lozim bo'ladi.

Bunday oraliq holatlar tilshunoslikka ham bevosita daxldordir. Shuning uchun ayrim tilshunoslar lingvistik birliklarni o'rganar ekanlar, ularni markaziy va chegara holatlarga ajratadilar. Chegara holatdagi lisoniy birliklarda ikki qutbiy birliklarga xos xususiyatlar aralashgan, tutashgan bo'ladi. Masalan, fonologik sathda unilarning og'iz ochilish darajasi belgisi bo'yicha zidlanishida tor va keng unililar oralig'ida tor ham, keng ham bo'lmagan o'rta keng (o'rta, tor) unililar mavjud. Yoki so'z turkumlari sistemasida mustaqil va yordamchi so'zlar zidlanishi oralig'ida mustaqil so'zlarga ham, yordamchi so'zlarga ham kirmaydigan, har ikkisining belgisini qisman o'zida mujassam etgan so'zlar guruhi bor. Bunday misollarni tilning har bir sathi bo'yicha ko'plab keltirish mumkin. Shu faktning o'ziyoq til sistemasidagi oraliq holatlarning dialektika qonuniyatlariga muvofiq kelishini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, tilshunoslikdagi turli xil muammolarni obyektiv hal qilishda falsafaga tayanib ish ko'rish katta ahamiyat kasb etadi.

I.2. Tilshunoslik va mantiq

Tilshunoslik mantiq fani bilan ham uzviy aloqadordir. Ularning aloqadorlik tomoni shundaki, har ikkisi ham tafakkur bilan bog‘lanadi. Chunki tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lgan til tafakkur bilan o‘zaro munosabatda. Til kishilarning olam haqidagi bilimlarini, fikrlarini boshqalarga yetkazuvchi va shakllantiruvchi vositadir. Til va tafakkur o‘zaro dialektik munosabatda ekan, ularni o‘rganuvchi tilshunoslik bilan mantiq o‘rtasida ham ana shunday dialektik aloqaning bo‘lishi tabiiy.

Mantiq tafakkur shakllari, qonunlari va usullarini o‘rganadi. U tushuncha, hukm shakllarini, xulosa chiqarish, isbot va rad etish holatlari orqali obyektiv voqelikning in‘ikos etish jarayonida qanday bo‘lish yo‘llarini ko‘rsatib, inson fikrining aniq, ravshan, ketma-ket va asosli bo‘lishini ta‘minlaydi. Shunday ekan, mantiq tilshunoslikning grammatika bo‘limi bilan bevosita munosabatdadir. Chunki tushuncha so‘z va so‘z birikmalari orqali ifodalansa, fikr gap orqali ifodalanadi. Bu esa har bir savodli kishi uchun grammatikani bilish qancha zarur bo‘lsa, mantiqning shakl va qonunlarini bilish ham shunchalik zarur. Shu bilan birga, mantiq va grammatika qanchalik o‘zaro zich bog‘lanmasin, o‘zlariga xos xususiyatlarga ham ega. Mantiq shakllari tushuncha, hukm, xulosalar hamma xalqlar uchun umumiy bo‘lsa, ularning turli tillarda ifodalanish shakllari turli-tumandir. Shuning uchun har bir til boshqasidan farq qiladigai o‘z grammatikalariga ega. Bu shuni ko‘rsatadiki, mantiq bilan grammatika bir-biri bilan bog‘liq, ular bir-birini to‘ldiradi. Ayni paytda, o‘z xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

Hozirgi kunda mantiq tafakkur shakllarini qanday o‘rganish nuqtayi nazaridan ikkiga bo‘linadi: 1) an’anaviy mantiq yoki shakliy mantiq; 2) dialektik mantiq.

Dialektik mantiq XIX asr oxirlarida amaliy mantiq bag‘rida uning chegaralangan tomonlarini to‘ldirish asosida dunyoga keldi.

An’anaviy mantiq tafakkur qonunlari, shakllari va usullarini tarixiy taraqqiyotni e‘tiborga olmagan holda o‘rganadi. Garchi mazkur mantiq insonning olamni bilishi uchun bir necha asrlar davomida dasturilamal bo‘lib xizmat qilgan

bo'lsa-da, lekin obyektning tarixiy taraqqiyot jarayonidan tashqarida o'rgangani uchun bir qadar o'zligi sezilib qoldi. Ana shu o'zlikni bartaraf etish talabi bilan dialektik mantiq paydo bo'ldi.

Dialektikaga asoslangan bilishgina obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni har tomonlama chuqur anglab olish, ularning ichki o'zgarish, rivojlanish qonunlarini to'g'ri aks ettirishi mumkin.

Dialektikani bilish jarayoniga tatbiq etish, uni mantiq sifatida, insonning rasional, aqliy bilishi, fikrlashi haqidagi fan sifatida o'rganish dialektik mantiq ta'limotini shakllantirdi. Dialektik mantiq shakliy mantiqdan quyidagi asosiy jihatlari bilan farqlanadi:

1) predmetni har tomonlama – uning barcha tomonlari, aloqalarini nazarda tutgan holda o'rganish;

2) predmetning uzluksiz o'zgarishda, rivojlanishda ekanini e'tiborga olish va h.k.

Dialektik mantiq barcha fanlar uchun, jumladan, tilshunoslik uchun ham metodologik asos vazifasini o'taydi.

Tilshunoslik falsafa bag'rida shakllangani, til va mantiq o'zaro zich bog'langani sababli bir qator olimlar til kategoriyalarini mantiq kategoriyalariga qiyosan o'rgandilar. Natijada tilshunoslikda mantiqiy yo'nalish maydonga keldi.

Tilni tafakkurga munosabati asosida o'rganuvchi tilshunoslar oqimi mantiqiy yo'nalishni tashkil qiladi.

Mantiqiy yo'nalish tilshunoslikdagi quyidagi muammolar bo'yicha fikr yuritadi: 1) tilning gnoseologiya bilan aloqasini ochish; 2) tilning o'ziga xos tuzilish xususiyatlarini emas, balki barcha tillar uchun universal tomonlarini yoritish; 3) grammatik kategoriyalarni mantiqning universal kategoriyalari asosida aniqlash: so'zni tushuncha asosida, gapni hukm asosida izohlash va boshqalar; 4) qanday til shakliga ega bo'lishidan qat'i nazar, yagona tahlil tamoyilini ishlab chiqish; 5) diaxronik tahlildan ko'ra sinxron tahlilni ustun qo'yish, shu bilan bog'liq ravishda tarixiy va qiyosiy-tarixiy grammatikaga nisbatan tavsifiy grammatikaga e'tibor berish; 6) ko'proq gap va semantika tahliliga diqqat qilish.

Tilshunoslik va mantiq o'zlarining ilk davrlaridayoq o'zaro munosabatda paydo bo'lgan, yunoncha logika, arabcha mantiq atamalarining negizida *so'z* (logos) va *nutq* yotgani ham fikrimiz dalilidir.

Logika atamasi ilmiy muomalaga stoiklar tomonidan fikrning so'z yordamida ifodalanishini bildiruvchi atama sifatida kiritildi. Arastu esa tafakkur qonunlarini o'rganuvchi fan uchun *analitika* atamasini qo'llagan edi.

Antik davrlardan boshlaboq grammatik kategoriyalar mantiqiy kategoriyalar asosida izohlandi. Gap so'zlar vositasida anglashilgan fikr deb ta'riflandi. So'z bilan gap o'rtasidagi farqlovchi belgi sifatida qaysi mantiqiy kategoriyalarni ifodalashi belgilandi: so'z tushunchani, gap fikrni bildirishi ta'kidlandi.

Gapning tuzilish birliklari ham ko'pincha tafakkur shakllaridan biri bo'lgan hukmning tuzilish birliklari orqali tushuntirildi. Ayniqsa, bunday holat bir sostavli gaplarni tushuntirishda yaqqol sezildi. Masalan, rus tilshunosi Babayseva bir sostavli gaplarni mantiqan sostavlarga bo'lish mumkin ekani bilan izohlaydi. Bir sostavli gaplarning quyidagi modellarini ko'rsatadi:

X-R (subyektsiz predikat ifodalangan gap, ya'ni egasiz kesim gap)

S-X (predikatsiz subyekt ifodalangan gap, ya'ni kesimsiz ega gap)

Xuddi shu mantiqiy yo'nalishning ta'siri prof. I.Rasulov tomonidan yozilgan «Hozirgi o'zbek adabiy tilida bir sostavli gaplar» monografiyasida ham seziladi.

Tilni mantiqiy kategoriyalar asosida o'rganish, ayniqsa, XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha o'z cho'qqisiga ko'tarildi. Bu davrda nutqning mantiqiy kategoriyalarga to'la mos holda shakllanishini e'tirof etgan holda, barcha tillar uchun umumiy, rasional grammatika yaratish harakati kuchaydi. Ana shunday kurashning boshlovchisi ingliz faylasufi F.Bekondir (1561 – 1626). U barcha tillar uchun umumiy, falsafiy grammatika yaratishga urindi. Bunday grammatika yaratishda o'zi ishlab chiqqan bilishning amaliy, induktiv metodiga tayandi. F.Bekon turli tillarning qiyosiy grammatikasini barpo etish asosida uning negizida barcha tillarning afzal jihatlarini qamrab olgan va inson tafakkuri hamda sezgilarini o'zida ideal joylashtiruvchi umumiy bir tilni yaratish mumkin degan g'oyani ilgari surdi.

Ko‘rinadiki, u dunyoga kengroq tarqalgan Ovrupo tillari negizida barcha xalqlarning takomillashgan aloqa vositasi bo‘lgan – xuddi esperanto kabi – bir tilni yaratish haqida fikr yuritadi.

Mantiqiy kategoriyalar asosida barcha tillar uchun umumiy grammatika yaratish g‘oyasi fransuz olimi Rene Dekart (1596 – 1650) va uning g‘oyasi asosida dunyoga kelgan karteziyan falsafasi tomonidan rivojlantirildi. Aslida, karteziyan atamasi Dekart familiyasining lotincha (Cartesins) yozilishi asosida maydonga kelgan.

Uning fikricha, barcha insonlarga xos murakkab tushunchalar sistemasi nisbatan ancha kam miqdordagi elementar birliklarga jamlanishi mumkin. Masalaning yechimi inson tafakkurining barcha boyliklarini tashkil etadigan eng kichik, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan mantiqiy birliklarni aniqlash darajasiga, chin falsafaga asoslangan falsafiy til sistemasini topishga bog‘liqdir.

Dekart xuddi tabiiy son qatorlari kabi inson fikr-g‘oyalarining ham sanog‘ini chiqarish mumkin ekanini taxmin qiladi. Uning fikricha, o‘ziga noma’lum bir tilda barcha sonlarni bir kunda yozish va o‘qish mumkin bo‘lganidek, inson tafakkuridagi tushuncha va g‘oyalarni ham ana shunday miqdorlarga keltirish, natijada o‘sha tushuncha va g‘oyalarni ifodalovchi so‘zlar tizimini yaratish mumkin. Bunday tilni yaratish, eng avvalo, chin falsafaga bog‘liq. Dekartning fikriga ko‘ra, faqat mazkur falsafagina insonning barcha fikr-g‘oyalarini sanashi va ularni sodda holda aniq qilib, chiroyli tartibda joylashtirishi mumkin. Bunday til, uning e’tirofiga ko‘ra, so‘zlarning bir xil tuslanish, turlanish va tuzilishiga ega bo‘lishi lozim.

Umumiy grammatika yaratish g‘oyasini olg‘a surgan olimlardan yana biri nemis olimi Gotfrid Vilgelm Leybnisdir (1646 – 1716). U ilmiy kashfiyotlar qilishga imkon beradigan umumiy ilmiy metodni qidirish jarayonida tilga murojaat etdi.

G.V.Leybnis faqat isbotlash bilangina kifoyalanuvchi an’anaviy, shakliy mantiqni tanqid qilgan holda, «ilmiy kashfiyotlar qilish san’ati»ga ega bo‘lgan yangi mantiqni yaratish zarurligini ta’kidlaydi. Ana shunday mantiqni yaratish

yo'lini u tilning mantiqiy tahlilida ko'radi. Tilning mantiqiy tahlili, olimning fikricha, universal mantiqiy simvollarni yaratish va bu simvollar yordamida tafakkur elementlarini ifodalash mumkin bo'ladi. Shunday qilib, Leybnis sun'iy simvolik tilni yaratish g'oyasini ko'tarib chiqdi. U bunday sun'iy tilning mantiqiy-falsafiy va matematik qurilmalarga maksimal yaqin bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Leybnis fikricha, barcha murakkab g'oyalar sodda g'oyalar kombinasiyasidan, barcha bo'linuvchi sonlar bo'linmaydigan sonlardan tashkil topganini e'tiborga olgan holda, murakkab tushunchalarni sodda tushunchalarga bo'lish chog'ida kombinatorika tamoyillariga amal qilish lozimligini uqtiradi. Birinchi qatordagi atamalar sodda tushunchalar, ikkinchi qatordagi atamalar sodda tushunchalar juftligi, uchinchi qatordagi atamalar esa birinchi qatordagi uch atamaning yoki birinchi qatordagi ikki atama bilan ikkinchi qatordagi bir atamaning kombinasiyasi ekanini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, barcha murakkab tushunchalar ma'no «atom»laridan tashkil topganini e'tirof etadi. Natijada tafakkur uzvlarini algebraik ifodalar bilan belgilash imkoni yaratiladi. Leybnis og'zaki va yozma nutqda qo'llash mumkin bo'lgan simvallashtirilgan til loyihasini tavsiya etdi. Bu tilning quyidagi simvollarni o'z ichiga olishi nazarda tutildi: a) to'qqizta ketma-ket kelgan raqam lotin alfavitidagi dastlabki to'qqiz undosh harfni ifodalaydi: 1=b, 2=s, 3=b, 4=t, 5=g, 6=h, 7=l, 8=m, 9=n... b) o'nliklar beshta unliga mos keladi: 10=a, 100=ye, 1000=l, 10000=o, 100000=u.

Leybnisning mazkur g'oyasi keyinchalik matematik mantiq va kibernetikaning shakllanishi va rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan simvolik mantiqning rivojlanishi uchun turtki berdi.

Garchi Bekon, Dekart, Leybnislar mantiqiy kategoriyalar asosida umumiy grammatika yaratish g'oyasini bergan bo'lsalar-da, lekin ular bu g'oyalarni falsafa doirasida bayon qildilar. Mavjud tillarning ichki tuzilishi va tabiati haqida sof lingvistik tadqiqot olib bormadilar.

Mantiq materiallari asosida til tuzilishini tushuntirish va rasional grammatika yaratish ilk marta fransuz olimlari A.Arno va K.Landsloga nasib etdi.

I.3. Tilshunoslik va tarix

Til jamiyatning aloqa – aralashuv quroli sifatida jamiyat tarixi bilan uzviy aloqadadir. Chunki jamiyatda ro‘y bergan har bir o‘zgarish shu jamiyatning tilida o‘zining ma’lum izini qoldiradi. Shuning uchun jamiyat tarixning muayyan jihatlarini yoritishda tarixiy hujjatlar, yozma yodgorliklar o‘zgarish qilib qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga kelishi mumkin. Ayni paytda, ma’lum lingvistik faktlarni tarixiy materiallarga suyanmasdan turib izohlash yetarli bo‘lmaydi. Bu esa jamiyat tarixi bilan shu jamiyat tilining va ularni o‘rganuvchi tarix fani bilan tilshunoslik fanining naqadar aloqador ekanini ko‘rsatadi.

Jamiyat uzluksiz harakatda, rivojlanishda, o‘zgarishda bo‘lganidek, uning tili tinimsiz harakatda o‘zgarishda, rivojlanishdadir. Shuning uchun tilshunoslik tarixida tilni o‘rganishda uning tarixiy taraqqiyotiga turlicha munosabatda bo‘ldilar. Xususan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik maktabi vakillari tilni tarixiy aspektda o‘rganishga ko‘proq e’tibor bergan bo‘lsalar, yosh grammatikachilar maktabi vakillari ularga tanqidiy yondashgan holda, tilning statik holatiga, asosan jonli nutqni o‘rganishga jiddiy e’tibor berdilar.

Mashhur shveysar olimi Ferdinand de Sossyur esa tilning har ikki jihatini o‘zaro aloqada o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi. Shuning uchun u tilning ikki holatini farqlagan holda, tilshunoslikning tekshirish metodining ham ikki xil bo‘lishi lozimligini ta’kidladi: sinxroniya va diaxroniya. Hozirgi kunda til ikki yo‘nalishda o‘rganiladi: statik (sinxron) holati va dinamik (diaxron) holati.

Til taraqqiyotining muayyan bir davridagi holati sinxron holat sanaladi. Til sinxron holatda o‘rganilganda, uning hozirgi holati tadqiqot obyekti bo‘ladi. Diaxron o‘rganishda esa til birliklarining tarixiy taraqqiyotiga e’tibor beriladi. Lekin sinxroniya bilan diaxroniya o‘zaro aloqadadir. Sinxroniya diaxroniya zanjiridagi bir halqa sanaladi. Shuning uchun ko‘p hollarda diaxroniyasiz tilning sinxron holatini tushuntirish qiyin bo‘ladi.

Til tarixi jamiyat tarixining tarkibiy qismi, shuning uchun til tarixini (tilni diaxronik o‘rganish) jamiyat tarixidan uzilgan holda o‘rganish mumkin emas. Tilda mavjud bir qator hodisalar mohiyati jamiyat tarixi asosida ochiladi.

Lekin til sistemasining barcha sathlari ham jamiyat tarixi bilan bir xilda bog‘lanmagan. Jamiyat hayotidagi turli xil yangiliklar shu jamiyat tilining lug‘at tarkibida o‘z ifodasini topgani tufayli til sistemasining leksik sathi boshqa sath birliklariga nisbatan ko‘proq jamiyat tarixi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Tilning leksik sathida jamiyatning turmush tarzi hayotidagi o‘zgarishlar ifodasini topgani bois so‘zni tahlil qilish asosida mazkur til egasi bo‘lgan jamiyat hayotiga bog‘liq tarixiy ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Masalan, *Qozonni osmoq* iborasi bor. Hozirgi kunda qozonning osilmasligi, balki o‘choq yoki gaz plitasi ustiga qo‘yilishi ma‘lum. Bu iboraning ma‘nosini tushuntirish jamiyatning qadimgi ko‘chmanchilik hayot tarzi haqidagi tasavvurimizni kengaytiradi. Qadimda o‘troqlashmagan jamiyat a‘zolari turli joylarda ovqat pishirish uchun tagidan o‘t yoqiladigan moslamaga masalliq solingan idishni ilganlar.

Til materiallarini o‘rganish tarixning uch xil muammosini hal qilishda yordam berishi mumkin:

- 1) xalqning kelib chiqishi;
- 2) tarixiy taraqqiyotning turli bosqichida xalq madaniyati holati;
- 3) boshqa xalqlar bilan munosabati.

O‘zbek xalqi tarixan bir qancha etnik guruhlarining uzoq davrlar davomida birga yashab, o‘zaro munosabatda bo‘lish va birlashuvi natijasida tarkib topgan. Qanday etnoslardan tashkil topgani hozirgi o‘zbek tilining mahalliy shevalari materiallari asosida oydinlashadi. Masalan, so‘z boshida [y] ning [j] ga almashinuvi, so‘z o‘rtasida ikki unli oralig‘idagi g undoshining y ga (sigir // siyir) yoki, aksincha, y undoshining g ga (keyin // kegin) almashinuvi, shu holatda bir qator jarangsiz undoshlarning jarangli undoshga aylanishi (chiqib // chig‘ib) va boshqalar mazkur til egalarining qadimda qipchoq qabilasiga mansub bo‘lganini bildiradi.

Shuningdek, so‘z boshida jarangsiz undoshlarning jarangli undoshga almashinishi (tog‘ // dag‘, tush // dush), cho‘ziq unlilarning mavjudligi (da: g‘) shu tilda gaplashuvchilarning o‘g‘iz qabilasidan kelib chiqqaniga ishora qiladi.

Yoki bir qator etnotoponimlar shu joyda yashayotgan etnoslarning tarixan qaysi urug‘ yoki qabiladan kelib chiqqanini bildirib turadi. Masalan, Andijon atrofida Nayman, Sulduz, Munduz, Saroy, Baxrin, Beshkal kabi qishloqlar bor. Mazkur qishloqlarda yashovchilar o‘zlarining tarixan qipchoqlardan kelib chiqqanini hozirgi kunda bilmaydilar. Faqat toponimik ma’lumotlarga ularning genetik jihatdan qipchoqlarga mansubligiga ishora qiladi. Qipchoq elementlari bu qishloqlarda yashovchi aholi tilining fonetik tuzilishida ham sezilmaydi.

Til faktlari shu til egalarining muayyan bir davrdagi turmush madaniyati haqida ham ma’lumot beradi. Masalan, qadimgi turkiy-runiy yozma yodgorliklaridai «Kultegin» yodnomasida **badiz chekmoq, balbal, badizchi** kabi so‘z va iboralar uchraydi. Qadimgi turk tilida **badiz** «qabr ustiga o‘rnatilgan toshga o‘yib yozilgan xotira», **badizchi** «toshga o‘yib xotira yozuvchi», **balbal** esa bal (balchiq) «loy» va bal (sh) «bosh» o‘zaklarining qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan qo‘shma so‘z bo‘lib, «byust», «loydan qilingan insonning bosh qismi» ma’nolarini beradi. Matnda bayon qilinishicha, Kultegin vafotidan so‘ng uning qabri ustiga badizchi tomonidan badiz chekilib balbal qo‘yiladi. Shu til faktining o‘ziyoq o‘sha davrdagi turkiy qavmlar nufuzli shaxslar qabriga xotira yozilgan qabr toshi qo‘yganlari va byust o‘rnatganlari haqida ma’lumot beradi.

Lingvistik materiallar til egalarining boshqa etnoslar bilan o‘tmishdagi munosabatlari haqida axborot beradi. Masalan, o‘zbek tilining leksik qatlamida bir qator forscha-tojikcha, arabcha leksemalar mavjud. Masalan, *barg, go’sht, musht, g’isht; ma’no, ra’no, vaqt, kitob, qalam* va h.k. Bu leksemalar o‘zbek xalqining qadimdan fors-tojiklar bilan bir hududda qon-qardosh bo‘lib yashagani, shu bilan birga, arab istilosidan so‘ng islomning ta’siri haqida ma’lumot berib turadi.

Ba’zan tarixiy muammolarni hal qilishda tarixchi bilan tilshunosning hamkorligi zarur bo‘ladi. Xususan, xronologiya muammolari ko‘pincha ana shu yo‘l bilan o‘z yechimini topadi.

Til bilan shu til egasi bo‘lgan xalq uzviy aloqadadir. Xalq tarixidagi har bir voqea, urf-odatlar, turmush tarzi uning tilida aks etadi. Shuning uchun til bilan shu til egasi bo‘lgan etnos o‘rtasida qanday mustahkam aloqa mavjud bo‘lsa, ularni

o'rganuvchi tilshunoslik bilan xalq tarixi va etnografiya o'rtasida ham shunday aloqa bor.

Xalq, elatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayotida ro'y bergan har bir o'zgarish uning tilida ham o'z ifodasini topadi. Shuning uchun xalq tarixi uchun tarixiy hujjatlar, arxeologik yodgorliklar guvohlik berolmagan taqdirda ham, uning tili qimmatli materiallar berishi mumkin. Ayniqsa, toponim, etnonim, etnotoponimlarni xalq tarixini inobatga olmay turib o'rganib bo'lmaydi. Shu bilan birga, tilshunoslik etnografiya bilan ham uzviy aloqadadir.

Tilning shu til egasi bo'lgan etnos malaniyatiga munosabatini, tilning funksiyalanish va rivojlanish jarayonida til bilan etnomadaniyat, etnopsixologik omillar o'rtasidagi aloqani o'rganishga ehtiyoj tufayli etnolingvistika yo'nalishi vujudga keldi.

Etnolingvistika atamasi grekcha etnos – xalq, qabila va lingvistika so'zlaridan olingan bo'lib, mustaqil lingvistik yo'nalish sifatida XIX asrning 70-yillarida Shimoliy, keyinroq Markaziy Amerikadagi hindu qabilalarining tili, madaniyati, urf-odatlarini o'rganishning kuchayishi bilan paydo bo'ldi. Lekin mazkur yo'nalishning ilk davrida ko'proq etnografiya masalalariga diqqat jalb qilindi, faqat asrimizning 20-yillarida lingvistik tomoniga e'tibor kuchaytirildi.

Etnolingvistikaning mustaqil lingvistik yo'nalish sifatida shakllanishida Amerika tilshunosi, etnografi F.Boas va uning o'quvchilarining xizmati katta. Ular yo'nalishning muammolar doirasini va tadqiqot metodlarini belgiladilar. Etnolingvistika Amerika olimlari asarlarida ko'pincha «antropolingvistika», «etnosemantika» atamaları bilan ham almashtirib qo'llaniladi.

Etnolingvistika muammolaridan eng muhimi sifatida Amerika hindulari tillarining genetik qarindoshligini aniqlash masalasi qaraldi.

Bu tillarning tasnifi dastlab ma'lum tamoyilga asoslanmagan holda, taxminlarga tayanib qilingan bo'lsa, keyinchalik E.Sepir, S.Lem, M.Svodesh, J.L.Treyjer va boshqalar tomonidan aniq ilmiy metodlarga tayanildi. Hindular tillarini sinflarga birlashtirishda hissiy-tarixiy (E.Sepir, S.Lem), glottoxronologik

(M.Svodesh), tarixiy-tipologik va areal (K.Xeyil, J.L.Treyjer) metodlardan foydalanildi.

Tillarning tasnifidan tashqari, yana tillarning va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri, bilingvizm masalalari, til taraqqiyotiga ijtimoiy madaniyatning ta’siri kabi muammolar ham etnolingvistikaning o‘rganish doirasiga kiritildi.

Dastlab etnolingvistika doirasiga semantika ham kiritilgan edi. Lekin keyinchalik deskriptiv lingvistikaning avj olishi natijasida semantika lingvistik tadqiqotlar doirasidan chiqarildi.

Tilning semantik tomoniga e’tibor asrimizning 50-yilarida Sepir-Uorf gipotezasini keng muhokama qilish jarayonida qayta jonlandi. Ayni paytda, etnolingvistika masalalariga ham yana e’tibor kuchaydi. Bu davrda semantikaga e’tiborning qaratilishi natijasida uzviy tahlil metodi amaliyotda keng qo‘llanildi. Bunday usul yordamida turli tillarda sosial-madaniy xususiyatlarni ifodalovchi so‘zlar guruhi (qarindosh-urug‘ nomlari, rang bildiruvchi so‘zlar) atroflicha tahlil etildi.

Shuningdek, turli etnik guruhlarda qo‘llaniladigan paralingvistik vositalar, folklor materiallarini o‘rganish ham etnolingvistika obyektiga kiritildi. Xususan, asrimizning 70 – 80-yillarida folklor materiallariga e’tiborning tortilishi til va madaniyat o‘rtasidagi aloqaning yangi turlarini ochishga imkoniyat yaratdi va bu bilan etnolingvistikaning o‘rganish doirasini kengaytirdi.

Hozirgi kunda etnolingvistika dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida tilshunoslikning bir yo‘nalishi sifatida e’tirof etildi va bu yo‘nalish bo‘yicha keng tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

I.4. Tilshunoslik va adabiyot

Tilshunoslik badiiy adabiyot bilan ham uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo'lib qolmay, balki tinglovchiga ta'sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an'anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o'rganish obyektidir.

Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni o'rganuvchi bo'limidir.

Lingvopoetikaning predmeti badiiy asarda foydalanilgan til birliklarining yig'indisi hisoblanib, ular yordamida yozuvchi o'zining g'oyaviy-badiiy niyatini amalga oshirish uchun zaruriy estetik ta'sirni ta'minlaydi; lingvopoetik tahlilning maqsadi muallif tomonidan u yoki bu til birligi (so'z, so'z birikmasi, sintaktik konstruktsiya) badiiy so'z ijodi jarayoniga qanday kiritilishi, til vositalarining u yoki bu o'ziga xos birikmasi mazkur estetik effekt yaratilishiga qay tarzda olib kelishini aniqlashdan iborat bo'lishi lozim".¹ Lingvopoetikaning asosiy o'rganish obyekti – badiiy matn bo'lib, matnni tahlil qilish orqali ijodkorning badiiy mahorati, o'ziga xos uslubi, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchining umumxalq tiliga munosabati o'rganiladi.

Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamaları tez-tez uchrab turadi. Mazkur atamalar ifodalagan tushunchalar bir-biriga juda yaqin tursa ham, lekin o'zaro ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. «Obraz», «uslub», «ko'chim (trop)», «badiiy til», «stilistika», «poetika» kabi tushunchalar badiiy asar tili va lingvistik poetikaga daxldor tushunchalardir.

V.P.Grigoryevning ta'kidlashicha, badiiy til keng qamrovli obyekt sifatida funksional darajalangan qismlarga, fragmentlarga bo'linish xususiyatiga ega.

¹ Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дис. ...д-ра филол. наук. – М.: 1992.-С.59.

Amalda keng qamrovli obyektning ayrim fragmentlarigina badiiy nutqning tahliliga beriladi. Ana shunday asosiy fragment badiiy asar tili sanaladi. Ko‘rinadiki, badiiy nutq badiiy asar tiliga nisbatan kengroq tushunchadir. U tilning ekspressiv funksiyasini o‘z ichiga oladi. Badiiy asar tili esa badiiy nutqning bir ko‘rinishi, bir fragmenti hisoblanadi.

Badiiy nutqni o‘rganuvchi lingvistik poetika ham til sistemasi barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Fonetik-fonologik sathda fonetik birliklar ham badiiy-estetik vazifa bajarishi mumkin. Xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo‘g‘inlarning takrorlanishi she‘riyatda go‘zallikni, ta’sirchanlikni ta’minlovchi vosita sanaladi. She‘riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she‘rda o‘ziga xos jozibador ohang bo‘ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo‘llash natijasida erishiladi. She‘riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho‘zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta’minlanadi. Tovushlarni uslubiy qo‘llash bilan bog‘liq qonuniyatlarni yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga fonografik vositalar yordamida erishish mumkin. Aflotun va Arastu yashagan zamonlardayoq so‘zning talaffuz tarzi va uni aynan yozuvga ko‘chirish muammosi mutafakkirlar e’tiborini o‘ziga jalb qilgan edi. Hatto bu notiqlik san’ati bilan bogliq bo‘lmagan ravishda, so‘zning, so‘zdagi harflarning talaffuzi bilan bog‘liq ohanglar garmoniyasi buyuk faylasuflarga ilhom manbayi bo‘lgan edi. Ular so‘z tarkibiga singib o‘ziga xos ma’no va ohang kasb etib ulgurmagan tovushlarga ham o‘zgacha mazmun berishga intilishgan edi. Masalan, «g» - tezlikning, shiddatning ramzi, «l» - viqorning, silliqlikning, yaltiroqlikning ifodachisi, «1» - torning, «a» - kattaning, «e» - abadiyatning belgisi sifatida talqin qilingan. Keyinroq tovushlar tabiati bilan shugullanuvchi mutaxassislar «i», «b», «g» tovushlari dahshatni yodga solishi, «> xursandchilikning, «t», «p», «l»

tovushlari nazokatning sirli ramzlari ekanligi haqidagi mulohazalarini bayon qilishgan.¹

Leksik sathda leksemalarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi (metafora, metonimiya va boshq.), mubolag'a, meyozis kabi hodisalar ham ta'sirchanlikni oshiradi va lingvopoetikaning tekshirish obyekti sanaladi. Bundan tashqari badiiy matnning leksik tahlilida badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi.

Badiiy matnning lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganda morfologik birliklarning ishlatilishi bilan bogliq holatlar haqida fikr yuritish talab qilinadi. Morfologik birliklarning estetik vazifasi deganda «maxsus so'z formalari vositasida, shuningdek ma'lum bir grammatik ma'no va funksiyaga ega bo'lgan so'z formasini maxsus qo'llash orqali ekspressivlik - emotsionallik ifodalanishi tushuniladi.» Ekspressivlik ijobiy va salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlarda aniq ko'rinib turadi. Badiiy matn lisoniy jihatdan tekshirilganda dastavval ana shunday ma'no qirralariga ega bo'lgan birliklarni ajratish va qaysi turkumga xosligi, kimning nutqida, nima maqsad bilan qo'llanilganligi, kimga nisbatan, qanday vaziyatda ishlatilganligiga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Odatda erkalash - suyish, hurmat - e'zozlash, ko'tarinkilik, ulugvorlik, tantanavorlik kabi ma'nolarni bildiruvchi so'zlar ijobiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar hisoblanadi. Masalan: qizaloq, toychoq, o'rgilay, girgitton bo'lay, bolaginam, oppogim, do'mbogim, arslonim, pahlavonim, shakarim, shirinim kabi. Salbiy ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlar sirasiga jirkanish, manmanlik, mensimaslik, kibrlilik, masxara, nafrat, gazab, kinoya, kesatiq kabi sub'ektiv munosabatni ifodalovchi so'zlar kiradi. Bunday ma'nolarni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash va baholash lisoniy tahlilning asosini tashkil qiladi. O'zbek tilida kichraytirish shakli -cha, -choq, -chak qo'shimchalari bilan; erkalash shakli -jon, -xon, -oy, - (a)loq affikslari yordamida hosil qilinadi. Hurmat, mensimaslik,

¹ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши.-Т: Фан, 1983.

istehzo, umumlashtirish, tur-jinsga ajratish kabi ma'nolar -lar affiksi bilan hosil qilinadi. -gina qo'shimchasi chegara, erkalash, yaqinlik ma'nolarini yuzaga chiqaradi. Tahlil jarayonida matnda qo'llanilgan barcha morfologik birliklar emas, estetik maqsad aniq ko'rinib turadigan, yozuvchining badiiy niyati ifodalangan morfologik o'zgachaliklar haqida so'z yuritiladi. Masalan, eng ko'p ishlatiladigan badiiy tasvir vositalaridan biri takroridir. Morfologik birliklarning takrorlanishidan yuzaga keladigan uslubiy vosita - morfologik parallelizmning qo'llanilish maqsadi lisoniy jihatdan tadqiq etilishi mumkin. Shuningdek, atoqli otlar sirasiga kiruvchi - antroponimlarning muayyan maqsad bilan qo'llanishiga aloqador kuzatishlar olib borish mumkin. Chunki badiiy asarda qo'llanilgan ismlar ichida alohida uslubiy maqsad yuklanganlari ham bo'ladiki, ular yozuvchining g'oyaviy-badiiy niyatini aniqlashga yordam beradi.

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq, anafora, epifora, ellipsis, alliteratsiya, ritorik murojaat, sintaktik parallelizm, emotsional gaplar kabilar sintaktik poetikaning o'rganish obyekti sanaladi. Shuningdek, gap bo'laklarining o'rinlashishi, gap tarkibida bir xil bo'laklarning takrorlanishi kabi hodisalar ham badiiy nutqni shakllantirishda xizmat qiladi.

Shunday qilib, LP tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini o'rganishiga qarab fonetik poetika (FP), leksik poetika (LekP), sintaktik poetika (SP) kabi qismlarga bo'linadi.

LPning har qaysi turini alohida-alohida o'rganish va ularning o'zaro munosabatini ochish hozirgi tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

II BOB. MATNING ANTROPOTSENTRIK TALQINI

II.1. Nutqning kognitiv-semantik tarkibi

Matni kognitiv-semantik tadqiq etish muammolari xususida to'xtaladigan bo'lsak, aytish joizki, o'tgan asrning so'nggi choragida o'zining ilk qadamlarini qo'ygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylanib ulgurdi. Hozirgi vaqtda ushbu sohaning bir necha yo'nalishlari mavjud.

Kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o'rganuvchi sohadir. V.Z.Demyankov fikriga ko'ra, unda til tizimining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi sub'ektlar – so'zlovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi¹.

Kognitiv tilshunoslik kognitiv faoliyat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir².

Kognitsiya tushunchasi ham kognitiv tilshunoslikda markaziy o'rinda turuvchi tushuncha bo'lib, u ilmiy adabiyotlarda axborotni idrok etish, kodlashtirish va yaratish kabi jarayonlar tizimi sifatida izohlanadi³.

Kognitiv tilshunoslikda eng faol qo'llanuvchi va turli ta'riflarga ega bo'lgan termin *konsept* hisoblanadi. Uning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi⁴. Mazkur termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillarigacha *tushuncha* so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa⁵, uning hozirgi vaqtdagi izohi *tushuncha* terminiga nisbatan kengroq ma'no kasb etganini ko'rish mumkin.

¹ Демьянков В.З. Процудирование, или порождение речи // Краткий словарь когнитивных терминов / Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. /Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. –С. 129-134.

² Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Т., Лузина Л.Г. / Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. – С. 47.

³ Кўрсатилган лугат. – Б.51.

⁴ Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературе и в научном языке // Вопросы филологии. – Москва, 2001. – №1. – С.35-47.

⁵ Демьянков В.З. Кўрсатилган мақола.

Jumladan, N.Y.Shvedova konsept bu – tushuncha ekanligi, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki sub’ektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o‘z tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi¹.

Professor N.Mahmudov o‘z maqolalaridan birida *konsept* termini eng ko‘p definitsiyaga ega bo‘lgan termin ekanligini ta’kidlab, shunday yozadi: “Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e’tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo‘nalish nihoyatda keng tarqalganini ko‘rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog‘iga etish ham mushkul. Hatto so‘nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlangan”².

Rus tilshunosi L.V.Adonina *konsept* terminiga bag‘ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12 ta ta’rifini keltiradi. SHuningdek, uning ma’lumotiga ko‘ra, *konsept* termini o‘n nuqtai nazardan tasnif qilingan. Masalan, konsept standartlashishiga ko‘ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga; qo‘llanishiga ko‘ra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko‘ra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga bo‘linadi va h.k.³

Biz o‘z tadqiqotimizda konseptga Y.N.Shvedova tomonidan berilgan ta’rifni asos sifatida tanlaganmiz⁴.

Konsept termini borasidagi fikrlar o‘zbek tilshunoslari N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan batafsil izohlangan⁵. Shu boisdan biz konsept haqidagi o‘z qarashlarimiz bilan cheklanishni ma’qul hisoblaymiz. Fikrimizcha, konsept, darhaqiqat, mental tuzilma. Lekin u ko‘p qirrali va ko‘p

¹ Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.

² Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 9.

³ http://rtsu.slavist.t/index.php?option=com_content&view=full&id=149&Itemid=80

⁴ Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.

⁵ Қаранг: Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 29012. – № 5. Б. 3-16; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – 91б.; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-220.

qatlamli tuzilmadir. Shuningdek, konsept bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadi. Zero, konseptning kognitiv, psixolingvistik va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekt sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat beradi. Shuningdek, biz konseptning sub'ektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplarga ajratilganligini yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida baholaymiz. Zotan, til tizimining o'zi yuqoridagi sifatlarni o'zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslikda lisoniy konseptuallashtirish muhim ahamiyatga ega. Lisoniy konseptuallashtirish obyektiv voqelik yoki uning biror qismini til vositasida ifodalashdir. U "...inson ongida to'plangan ma'nolarning verballashtirilgan shakli va dunyo haqidagi bilimlarining muayyan til vositasida tizimlashtirilishi bo'lib, qisman universal, qisman milliy xarakterga ega bo'ladi"¹.

Kognitiv faoliyatda kognitiv metaforalarning ahamiyati beqiyosdir. Kognitiv tilshunoslik asoschilaridan biri J.Lakoff o'z tadqiqotlarida metafora faqat til hodisasi bo'libgina qolmasdan, insonning bilish faoliyatida muhim o'rin tutuvchi vosita ekanligini chuqur asoslab bergan. Kognitologiya fani nuqtayi nazaridan kognitiv metafora insonning o'z bilimlarini namoyon qilishi va konseptuallashtirishi usullaridan biri hisoblanib, uning mohiyati bir obyektни boshqa bir obyekt vositasida tushunish va tushuntirishdan iboratdir².

Dunyo tilshunosligida metaforalarga oid ko'plab tadqiqotlar yaratilganiga qaramay³, ushbu hodisa tilshunoslarni tobora o'ziga jalb etmoqda. Xususan, lingvokulturologiya hamda kognitiv tilshunoslik sohalarining shakllanishi metaforalarni yanada chuqurroq o'rganish, bu hodisani tadqiq etishda metaforik mazmunli matnlarni ham e'tiborga olishni taqozo qilmoqda. (Metaforalarning matn yaratilishidagi o'rni xususida ishimizning II bobida batafsil to'xtalamiz).

¹ Рыбникова В.А. Языковая концептуализация социума (на материале английских дидактических текстов): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар: Кубанский гос. ун-т, 2011. – 20 с.

² Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С 387-415.

³ Каранг: Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 512.

Shaxs omilini asosiy omillardan biri sifatida talqin etuvchi qarashlar ichida matn yaratilishining kognitiv talqini diqqatga sazovordir. Kognitiv talqin matn yaratilishiga “muallif – matn – matndan tashqaridagi voqelik” tamoyili asosida yondashib, unga bir vaqtning o‘zida bir necha nuqtai nazar bilan qarash fikrini ilgari suradi¹. Jumladan: so‘zlovchi maqsadining ifodasi bo‘lgan matn, nutq yaratilishi mahsuli bo‘lgan matn, tushunish obyekti bo‘lgan matn, tushunish mahsuli bo‘lgan matn².

Matn yaratilishining kognitiv talqiniga binoan, matn mental tuzilmaning tilga transformatsiyasidir. Bundan ko‘rinadiki, ushbu talqinga ko‘ra, botiniy nutqdagi bo‘lajak matnga ketma-ket joylashuvchi propozitsiyalar yig‘indisi sifatida emas, balki butundan qismlarga qarab harakatlanuvchi yaxlit shakl sifatida qaraladi. Ma’lumki, tilshunoslikda matnning tashqi (leksik-grammatik) va ichki (semantik) tuzilishiga ega ekanligi e’tirof etiladi³. Matnning ichki tuzilishi o‘zida semantik konsentrat, yadroviy mazmuni namoyon etadi. Kognitiv tilshunosning vazifasi ana shu mazmunga kognitiv asos bo‘lgan mental tuzilmalarni aniqlashdan iboratdir.

Kognitiv tilshunoslik namoyandalaridan biri V.Z.Demyankov ma’lumotiga ko‘ra, tanlangan kommunikativ strategiyadan kelib chiqib, bir axborot turli sharoitlarda har xil tarzda ifodalanishi mumkin. Inson xotirasidagi tartibga solingan axborot bilan uning verbal shakli orasida katta farq ham bo‘lishi mumkin. Matn yaratilishi modullariga axborot generatori va artikulyatorlari kiradi. Nutq, xususan, matn yaratilishi nafaqat semantik va grammatik qonuniyatlarga, balki axborotni bayon qilishning o‘ziga xos qoidalariga ham bo‘ysunadi. Voqea-hodisalarni bayon qilish sxemalari turlicha bo‘lib, matn bu voqea-hodisalarning o‘zaro aloqadorligiga muvofiq ravishda yuzaga keladi⁴.

¹ Комарова Л.И. Современные подходы к изучению художественного текста // Аналитика культурологии. Электронное научное издание. ISSN, 1990. – 4045.

² Чувакин А.А. Теория текста: объект и предмет исследования // Критика и семиотика. Вып. 7. – М., 2004. – С.88-90.

³ Каранг: Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 45.

⁴ Каранг: Демьянков В.З. Продуктивное, или порождение речи // Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Т., Лузина Л.Г. / Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. – С. 129-134.

Nutq yaratilishi jarayonida soʻzlovchi oʻz nutqini tinglovchining reaksiyasiga qarab oʻzgartirib boradi. Taʼkidlash lozimki, nutqni rejalashtirish hamda uning voqelanishi deyarli bir vaqtning oʻzida amalga oshiriladi. Inson har doim ham oʻz nutqining qanday shaklda ifodalanishini oldindan bilavermaydi, chunki bir jumla yoki soʻz boshqa jumla yoki soʻzni aytishni taqozo qiladi. Kognitivistlar fikriga koʻra, bu jarayon grammatik monitor qurilma (monitoring) nazorati ostida kechadi. Matn yaratilishi vaqtida shaxs tayyor lisoniy birliklar bilan bir qatorda nominatsiya strategiyalaridan ham foydalanadi. Odatda, matn yaratilishi jarayonida ikkita bosqich belgilanadi: matn tuzishni rejalashtirish (konseptual mazmunni tartibga solish); matn generatsiyasi (tabiiy tilga transformatsiya qilish)¹.

Hozirgi vaqtda kognitiv tilshunoslikda keng tarqalgan metodlardan biri freym tahlili hisoblanadi. Lingvokognitologiyaga koʻra, har qanday matn maʼlum bir freym ifodasidir. Freym nazariyasini yaratgan olimlardan biri M.Minskiy unga shunday taʼrif beradi: “...freym – stereotip vaziyatlarni namoyon qilish usullaridan biri hisoblanib, har qanday freymda koʻp qirrali axborot oʻzaro bogʻlangan boʻladi”². Binobarin, freym u yoki bu tipik vaziyatning keng hajmli prototipi boʻlib, matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini bajaradi. Bu oʻrinda shuni ham aytish lozimki, matn yaratilishi tadqiqida kognitiv tuzilmalardan biri boʻlgan geshtalt ham muhim oʻrin tutadi. Hozirgi tilshunoslikda mavjud boʻlgan semantik geshtaltlar nazariyasi tilning lugʻaviy sathini oʻrganishga tatbiq etilgan³. Geshtalt hodisasini matn bilan bogʻlab oʻrganuvchi tadqiqotlar soni esa juda oz. Vaholanki, har qanday matn yaratilishi “butundan – boʻlakka” jarayonini aks ettiradi. Prof. Sh.Safarov fikriga koʻra, geshtalt va matn yaratilishini uzviylikda tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi⁴.

Psixolingvistik nuqtai nazardan matn yaratish va uning mazmuniy persepsiyasi individning nutqiy tafakkuri mahsuli, obyektiv borliqni til tizimi

¹ Ўша ерда.

² Минский М. Остроумие и логика когнитивного бессознательного // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XIII: Когнитивные аспекты языка. – М.: Энергия, 1988. – С. 289.

³ Қаранг: Қараулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 263 с.

⁴ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – 916.

vositasida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda matnning shakli va mazmuni muayyan kommunikativ vaziyat qatnashchisi – konkret shaxsning psixologik xususiyatlari bilan uzviylikda tadqiq etiladi¹.

Matn idrokini dekodlash sifatida talqin etish o‘tgan asrning so‘nggi choragida e‘tiborni jalb qilgan qarashlardan biri bo‘ldi. Mashhur psixolingvist L.S.Vigotskiy “Мышление и речь” (“Tafakkur va nutq”) kitobida (Moskva, 1982) verbal tafakkur tabiatini keng miqyosda yoritib berdi. Dekodlash nazariyasini rivojlantirishda “Jinkin maktabi” deb nomlangan yo‘nalish vakillari katta rol o‘ynadilar.

N.I.Jinkin o‘z tadqiqotlarida UPK (universal-predmet kodi) haqidagi nazariyani ilgari surdi. Bu qarashlarga ko‘ra, inson nutqi dastlab uning ongida amorf – shaklsiz holatda bo‘ladi. Bu verbal shakl emas, u tasavvur holatida bo‘ladi. Bunday predmet kodi barcha millat vakillari uchun universal xarakterda bo‘lib, uni barcha tillarga tarjima qilish mumkin².

N.I.Jinkinining mazkur qarashini I.N.Gorelov o‘z tadqiqotlarida rivojlantirib, UPK axborotni uzatish kommunikativ usullarining neyrofiziologik ko‘rinishi ekanligini qayd etdi. I.N.Gorelovning fikriga ko‘ra, aynan mana shu jarayon tafakkurning tilga aylanish bosqichida vositachilik vazifasini bajaradi³.

XX asrning so‘nggi choragidan jahon tilshunosligida lisoniy faoliyat mahsuli bo‘lgan har qanday nutqiy tuzilmani uni yaratuvchi va idrok etuvchi shaxs – muallif va retsipient muloqoti nuqtayi nazaridan tadqiq etishga katta e‘tibor qaratila boshlandi. Nutqiy tuzilmani muloqot jarayoni sifatida o‘rganish *diskurs* tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. O‘tgan asrning 50-yillarida amerikalik tilshunos Zellig Xarris tomonidan birinchi marta qo‘llangan *diskurs* so‘zi bugungi kunda tilshunoslikning markaziy masalalaridan birini ifodalovchi hodisani anglatmoqda.

¹ Қаранг: Зорькина О.С. О психологическом подходе к изучению текста // Язык и культура. – Новосибирск, 2003. – С. 205-210.

² Қаранг: Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982. – С. 157.

³ Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 10-11.

Diskurs tushunchasi hozirgi davrda o'ta jadallik bilan sodir bo'layotgan fanlar integratsiyasini o'zida yaqqol namoyon etadi. U adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, tarix, sotsiologiya, antropologiya, pedagogika, siyosatshunoslik kabi fan sohalarining har birida maxsus definitsiyaga ega bo'lishi bilan birga, bugungi kunda yangi yo'nalishlardan biri hisoblangan diskursiv tahlilning ham markaziy muammolaridan biriga aylandi.

Ma'lumki, *diskurs* (fr. Diskours – nutq, harakat) termini dunyo tilshunosligida bir necha ma'noda talqin qilinadi. Bu termin dastlab *bog'lanma matn* tushunchasini ifodalagan bo'lsa, keyinchalik *suhbat*, *dialog* tushunchalariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi¹. Antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi natijasida *diskurs* termini yanada kengroq ma'noga ega bo'lmoqda. Mazkur termin ostida hozirgi kunda o'zida nolisoniy, xususan, psixologik, ijtimoiy va shaxs ongi bilan bog'liq omillarni mujassam etgan nutq tuzilmasini tushunish tendensiyasi kuchayib bormoqda². Shu bilan birga, *diskurs* so'zi ifodalagan hodisani sof tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etib bo'lmasligi, bunda shaxs omili bilan bog'liq bo'lgan bir necha fanlarning hamkorligi taqozo etilishi ham ayni kunda e'tirof etilgan haqiqatdir³.

Diskurs tushunchasining bu tarzda talqin etilishiga, shubhasiz, antropotsentrik paradigmaning shakllanishi va rivojlanishi katta ta'sir ko'rsatdi. Diskursiv tahlil, obrazli qilib aytganda, bir necha lingvistik tahlil yo'nalishlarining kesishgan chorrahasidir. Chunki diskursiv faoliyat, ya'ni ongli tarzda nutq yaratish va uni idrok etish⁴ jarayoni shaxs omilini o'rganishni taqozo etadi. Zero, har qanday nutq ko'rinishi bu – o'zida muayyan ijtimoiy-madaniy muhitga mansub, psixologik va kognitiv jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs faoliyatining natijasidir. Ayon bo'ladiki, diskursiv tahlil nutqni shaxs faoliyati sifatida o'rganishni taqozo etadi. Bu jarayon esa lisoniy faoliyatga bir vaqtning o'zida bir necha nuqtayi nazardan yondashish kerakligini bildiradi. Ko'rinadiki,

¹ Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. – М.: Прогресс, 1978. – С. 467-468.

² Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 7-8.

³ Бу ҳақда қаранг: Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004.

⁴ Седов К.Ф. Кўрсатилган асар. – С. 7-8.

nutqiy tuzilmani bu tarzda o‘rganish tadqiqotchiga juda katta imkoniyatlar eshigini ochib berish bilan birga, uning *diskursiv tahlil* deb nomlanayotgan “chorraha”dan o‘tishini ham taqozo qiladi.

Diskursiv faoliyat jarayonini o‘rganmasdan turib diskurs hodisasini tushuntirib bo‘lmaydi. Diskursiv faoliyat – nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni ekan, ushbu jarayon nutq yaratuvchi – muallif va uni qabul qiluvchi – retsipient shaxsi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu o‘rinda diskursiv tahlil psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvistik semantika va kognitiv tilshunoslikning bir nuqtada kesishishini taqozo etadi.

Hozirgi kunda diskursiv tahlilning bir necha yo‘nalishlari mavjud. Ulardan biri diskurs interpretatsiyasidir. Diskurs interpretatsiyasi nutq tuzilmasini “ichdan” turib tahlil etuvchi, kognitiv tilshunoslik bilan uzviylikka ega bo‘lgan tahlil ko‘rinishlaridan biridir. Diskursiv tahlil tadqiqotchidan ham muallif nuqtai nazarini, ham retsipient nuqtai nazarini e‘tiborga olishni talab qiladi.

Diskurs interpretatsiyasi bilan shug‘ullangan tadqiqotchilardan biri, mashhur gollandiyalik tilshunos T.Avan Deyk matbuot materiallari ustida olib borgan tadqiqotlarida diskurs tahliliga oid bir qancha muhim nazariy qarashlarni yaratdi¹. Shulardan biri makropropozitsiya haqidagi ilmiy qarashdir. *Makropropozitsiya* termini matnda ifodalangan obyektiv mazmuni aks ettiruvchi hodisadir. T.A.van Deyk so‘zlari bilan aytganda, “Makropropozitsiya... diskursni tashkil etgan gaplarda ifodalangan propozitsiyalardan hosil qilingan propozitsiyadir... u bir propozitsiyalar ketma-ketligining yana boshqa shunday yuqoriroq darajadagi propozitsiyalar ketma-ketligi bilan bog‘lanishini aniqlaydi va buning natijasida diskurs yoki epizodning global ma’nosi kelib chiqadi”².

Olim matnda yonma-yon kelgan gaplarning mazmunan bog‘lanishini *lokal aloqa*, diskursda ifodalangan obyektiv mazmuni keltirib chiqaradigan bog‘lanishni esa *global aloqa* terminlari bilan nomlaydi va bu ikki hodisani farqlash lozimligini ta’kidlaydi³.

¹ Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – С. 117.

² Дейк Т.А. ван. Кўрсатилган асар. – Б. 42.

³ Дейк Т.А. ван. Кўрсатилган асар.

Darhaqiqat, matnda ifodalangan asosiy mazmun (tema, topik) alohida olingan gapdagi shunday mazmundan – propozitsiyadan tubdan farq qiladi. Makropropozitsiyani tadqiq etish tadqiqotchiga diskurs yaratilishida tafakkur va tilning munosabatini chuqurroq o‘rganish, lisoniy shaxs fenomenini kengroq yoritish imkoniyatini beradi. Makropropozitsiya matnda ifodalangan gaplarning mantiqiy sintezidir. Uning qanday verbal vositalar orqali ifodalanishi nutq yaratuvchi shaxsning diskursiv qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Olimning makropropozitsiya haqidagi qarashlari publitsistik uslub materiallari misolida asoslangan bo‘lsa-da¹, uni badiiy matn tahliliga ham tatbiq etish mumkin. Makropropozitsiya haqidagi bu qarash murakkab mazmuniy tuzilishga ega bo‘lgan badiiy matn tushunishning kognitiv-diskursiv jihatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Zero, har qanday nutqiy tuzilma, shu jumladan, ko‘p hollarda ikkilamchi nominatsiya bilan ish ko‘ruvchi badiiy matnning asosida ham mantiqiy-kognitiv asos yotadi.

Alohida ta’kidlash joizki, eng so‘nggi tadqiqotlarda matnga integrativ nuqtai nazardan yondashish fikri ilgari surilmoqda. Jumladan, E.Y.Bajenovaning fikriga ko‘ra, matnga bir vaqtning o‘zida kommunikativ, kognitiv va funksional nuqtai nazar bilan yondashish natijasida bu borada jiddiy yutuqlarni qo‘lga kiritish mumkin². Mazkur fikrni bugungi kunda integrativ tahlil bo‘yicha yaratilgan ko‘plab tadqiqotlar ham isbotlamoqda. Zotan, integrativ tahlilning ustun jihati shundaki, unda matn bir vaqtning o‘zida lingvistik va nolisoniy omillar nuqtayi nazaridan tadqiq etish mumkin. Bu esa ayni hodisaning mohiyatini to‘lig‘icha yoritib berish imkonini yaratadi. Amerikalik tilshunos Eduard Sepir o‘zining “Lingvistikaning fan sifatidagi maqomi” nomli maqolasida shunday deb yozgan edi: “Lingvistik tadqiqotlar rivojlanishi jarayonida tilshunoslik inson haqidagi fanlarni egallashda muhim qurol ekanligini isbotlamoqda va, ayni vaqtda, o‘z mohiyatini chuqur yoritishga imkon beruvchi bu fanlarga ham ehtiyoj sezmoqda. O‘zining an’anaviy tadqiqot obyekti bilan chegaralanib qolgan

¹ Дейк Т.А. ван. Кўрсатилган асар.

² Баженова Е.Ю. Интегрированный подход к анализу процесса порождения текста // Вестник Челябинского государственного университета. – 2011. – №13 (54). – С.31.

tilshunos hozirgi davrda qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Agar unda ozgina tasavvur qila olish imkoniyati bo'lsa, tilshunoslikning antropologiya, madaniyat tarixi, sotsiologiya, psixologiya, falsafa bilan, qolaversa, fiziologiya va fizika fanlari bilan mushtarak manfaatlarga ega ekanligini inkor eta olmaydi”¹.

Mashhur tilshunosning bu so'zlari zamonaviy tilshunoslikning etakchi yo'nalishlaridan biri bo'lgan integrativ tahlil to'g'risidagi bashoratdek tuyuladi. Bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, sotsiolingvistika, sotsiopsixolingvistika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, lingvokulturologiya kabi bir qator yo'nalishlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Bundan maqsad nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o'rin tutishini aniqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, matnning shaxs faoliyati bilan bog'liq xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir.

Ayon bo'ladiki, lisoniy faoliyatni namoyon etuvchi matn xususida kognitiv tilshunoslikda mavjud bo'lgan qarashlar turli-tuman va o'ziga xosdir. Ammo ularning barchasi murakkab mavjudot bo'lgan inson (shaxs) fenomeni mohiyatiga chuqurroq yondashishga intilmoqda.

Dunyo tilshunosligidagi mazkur nazariy ta'limotlardan foydalanib, ularni rivojlantirgan holda o'zbek tilida so'zlashuvchi shaxs lisoniy faoliyatining o'ziga xos jihatlarini yoritib berish bugungi tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

¹ Сепир Э. Статус лингвистики как наука // Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 260.

II.2. Matnning psixolingvistik xususiyatlari

Matnning antropotsentrik mohiyati psixologiya va lingvistika sohalari kesishuvi natijasida yuzaga kelgan psixolingvistikada ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Psixolingvistik tadqiqotlarda matnning **matn tuzuvchi – matn – retsipient**dan iborat uchlik¹ nuqtayi nazaridan tadqiq etilishi unda shaxs omilining rolini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Ma’lumki, psixolingvistika sohasi XX asrning 50-yillarida psixologiya va tilshunoslik fanlarining hamkorligi natijasida yuzaga kelgan. Psixolingvistikaning asosiy tadqiq obyekti nutqiy faoliyat sub’ekti bo‘lgan shaxs, til sohibi hisoblanadi. Rus tilshunosligida mazkur soha rivojiga katta hissa qo‘shgan A.A.Zalevskaya psixolingvistikaning vazifasi haqida yozar ekan, “tilning amal qilishini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish” ushbu sohaning asosiy maqsadi bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi².

Psixolingvistikaga doir ko‘plab tadqiqotlar yaratgan rus tilshunosi va psixologi V.P.Belyanin “Оснoвы психологического диагности (модели мира в литературе)” nomli asarida matnga lingvistik va psixologik yondashuv haqidagi o‘z konsepsiyasini yaratdi. Olimning mazkur kitobdan o‘rin olgan, matn haqidagi qarashlarini aks ettirgan 6 banddan iborat fikrlarini to‘liq keltirishni lozim, deb hisoblaymiz. Zero, ular tilshunosligimizda hali shakllanib ulgurmagani matnning psixolingvistik tadqiq tamoyillari uchun juda muhimdir.

1. V.P.Belyaninning fikriga ko‘ra, nutq ortida nafaqat til tizimi, balki psixologiya ham turadi. (Ayonki, bunda olim nutq yaratilishi jarayonini nazarda tutgan).

2. Har xil matn ortida har xil psixologiya turadi. (Bunda V.P.Belyanin matn tuzuvchining matnda aks etuvchi sub’ektiv xususiyatlarini nazarda tutgan).

¹ Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психология. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрель, АСТ, 2007. – 318 с.

² Залевская А.А. Введение в психоллингвистику: Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: Российский гос. гуманитар. ун-т, 1999. – С. 25.

3. Badiiy matn tuzilishi aksentuallashgan ong tuzilishiga muvofiqdir. (Bunda Belyanin ong psixik tuzilishining matn tuzilishiga ta'sirini nazarda tutadi. Uning bu fikri keyingi bandda yanada ravshanroq namoyon bo'ladi).

4. Hissiy-mazmuniy dominanta¹ badiiy matnning semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari, shuningdek, uning uslubiyati namoyon bo'lishida asosiy rol ni bajaradi.

5. Matn voqelik – ong – olam manzarasi – til – matn tuzuvchi – retsipient – matn proeksiyasidan iborat tizim unsuri hisoblanadi. (V.P.Belyanin ushbu bandda matn yaratilishi va idroking barcha lisoniy va nolisoniy omillarini qayd etgan).

6. Retseptantning badiiy asar haqidagi o'z talqini bo'lishi mumkin. Bu talqin matn bilan birga retseptantning psixologiyasiga ham bog'liq bo'ladi². (Bu bandda V.P.Belyanin matn idroking xususiy hodisa ekanligini ta'kidlagan).

Nazarimizda, V.P.Belyanin tomonidan keltirilgan ushbu qarashlar faqat badiiy matn ni emas, boshqa uslubdagi matnlarni ham psixolingvistik tahlil qilish uchun asos bo'la oladi. Xususan, 5-bandda bayon etilgan matnning obyektiv voqelik, ong, olam manzarasi, nutq yaratilishi va uning idroki bilan bog'liq bo'lgan serqirra va murakkab hodisa ekanligi haqidagi qarashlar matnning psixolingvistik mohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Psixolingvistik tahlilda lisoniy ong masalasi ham markaziy o'rinlardan birini egallaydi. "Lisoniy ong tashqi faoliyatni til belgilari vositasida rejalashtirish va boshqarishdan iborat bo'lgan ichki jarayondir"³. U, xususan, muloqotning eng oliy birligi bo'lgan matn yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Matnning psixolingvistik tadqiqida eng muhim bo'lgan obyektlardan biri til sohibi – matn tuzuvchi va retseptant faoliyatidir. Ma'lumki, matn inson tomonidan inson uchun yaratiladi. Bu matn yaratilishi va uning idrokidan iborat faoliyat zanjirining antropotsentrik xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Psixolingvistik tahlilda muallif-retseptant munosabatlarida amal qiluvchi lisoniy va

¹ Хиссий-мазмуний доминанта ҳақида 3-бобда алоҳида тўхталамиз.

² Белянин В.П. Основы психоллингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М: Тривола, 2000. – С. 8-9.

³ Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психология. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрель, АСТ, 2007. – 318 с.

nolisoniy omillar borki, ularni o‘zaro uyg‘unlikda tadqiq etish kutilgan natijalarni olishga imkon yaratadi.

Tilshunoslikda matn mohiyati, unga xos bo‘lgan asosiy belgilar haqida mavjud bo‘lgan fikrlar¹ matnni psixolingvistik aspektda o‘rgangan tadqiqotchilar tomonidan ham e’tirof etiladi. Jumladan, yaxlitlik, informativlik, bog‘lanishlik kabi xususiyatlar matnning asosiy belgilari ekanligi bir qator psixolingvistlarning ishlarida ham qayd etib o‘tilgan². Shu bilan birga, ushbu tadqiqotchilar matnning psixolingvistik o‘ziga xosligi haqida ayrim qarashlarni ham ilgari surdilar. Jumladan, matnni psixolingvistik aspektda o‘rgangan Y.A.Sorokin uning bog‘lanishlik va yaxlitlikdan iborat belgilariga quyidagi tarzda yondashadi: “Matn yaxlitligi psixologik nuqtai nazardan retsipient va matnning o‘zaro munosabati jarayonida yuzaga keluvchi yashirin proeksion (konseptual) holatdir, shuningdek, bog‘lanishlik til / nutq qurilishi unsurlari barobarida uning qurilish unsurlari bo‘lmagan qismlarning o‘zaro hamkorligi natijasi hamdir³. Yana bir tilshunos A.I.Novikovning fikriga ko‘ra esa matn yaxlitligi faqat uning mazmuniy tuzilishiga xosdir⁴. A.I.Novikovning ushbu xulosasi psixologik va kognitiv nuqtai nazardan to‘g‘ri bo‘lsa-da, matnning tashqi tuzilishi – sintaktik-struktur jihatini e’tiborga olmaganligi bilan munozaralidir. Zero, matn yaxlitligini uning ichki tuzilishigina ta’minlamaydi.

A.I.Novikov matnning psixolingvistik belgilari qatorida axborot siqirligi (kompressivnost)ni ham qayd etadi⁵. Axborot verbal shaklining siqirligi N.A.Jinning har bir matnni bitta gap shakliga keltirish mumkinligi haqidagi g‘oyasiga asoslangan.

¹ Бу ҳақда қаранг: Юлдашев М.М. Бадий матннинг лингвопозитик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2009. – Б. 49-70.

² Белянин В.П. Основы психологической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. – С. 8-13; Пешкова Н.П. Психолингвистические аспекты типологии научного текста: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2002. – С. 15; Новиков А.И. Текст как объект исследования лингвопсихологии // Методология современной психолингвистики: Сб. статей. – Москва; Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2003. – С.10.

³ Сорокин Ю.А. Текст: цельность, связность, эмотивность // Аспекты общей и частной теории текста. –М., 1982. – С. 61-73.

⁴ Новиков А.И. Кўрсатилган мақола.

⁵ Новиков А.И. Кўрсатилган мақола. – Б. 9-17.

A.I.Novikov yuqorida qayd etilgan maqolasida matnni tahlil qilishning yangi bir yo‘nalishi haqidagi qarashlarini ham bayon etgan. Uning fikricha, psixolingvistik va kognitiv tilshunoslikda til turli nuqtai nazarga ko‘ra tahlil qilinsa-da, ular bir nuqtada kesishadi. U mana shu nuqtani “lingvopsixologiya” deb atashni taklif qiladi¹.

Matnni psixolingvistik tahlil etish haqidagi ayrim tadqiqotlarda uning kreollashtirilganlik, shakliy uzilish hamda interpretativlik xususiyatlari ham e‘tiborga olinishi lozimligi ta’kidlanadi².

Kreollashtirilganlik (rus tilida: kreolizovannost) *kreol*³ so‘zidan hosil qilingan bo‘lib, retsipientga ta’sir o‘tkazish maqsadida verbal hamda noverbal shakllarning uyg‘unlashtirilishi tushuniladi. Rus tilshunosi M.B.Voroshilovanning ma’lumotiga ko‘ra, bu tushuncha psixolingvistikaga Y.A.Sorokin hamda E.F.Tarasovalar tomonidan kiritilgan⁴. Kreollashtirish natijasida “verbal va noverbal unsurlar yagona vizual, tuzilmaviy, mazmuniy va funksional yaxlitlikni hosil qiladi”⁵. Bunday matnlar sirasiga tadqiqotchi reklama matnlari, kinomatnlarni kiritadi.

Biz ruscha *kreolizovannyi tekst* terminini o‘zbek tilida *uyg‘un matn* termini bilan ifodalash ma’qul, deb o‘ylaymiz, chunki bunday matnlarda bir necha nolisoniy va lisoniy faktlarning uyg‘unlashuvidan iborat jarayon hosil bo‘ladi. Fikrimizcha, uyg‘un matnlar nafaqat psixolingvistikada, balki lingvokulturologiyada ham o‘rganilishi lozim. Sababi – uyg‘un matnlarda turli madaniy-semiotik maydonlar o‘zaro aloqaga kirishadi. Masalan, g‘azallar to‘plamidan iborat kitoblarda ko‘pincha Ch.Ahmarov miniatyuralari ham beriladi. Bunda she’riy matn mazmuni hamda suratlardagi tasvir o‘zaro uyg‘unlashadi. Bunday usulni ertaklar to‘plamida ham ko‘rish mumkin. Reklama matnlari ham

¹ Новиков А.И. Кўрсатилган мақола.

² Каранг: Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психоллингвистика. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрель, АСТ, 2007. – 318 с.

³ *kreol* – Африка мамлакатларида африкаликларнинг тубжойли бўлмаган, келгинди халқ вакиллари билан бўлган никоҳларидан туғилган авлодлар / Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 416.

⁴ Ворошилова Н.Б. Креолизованный текст: аспекты изучения // Политическая лингвистика. Вып. 20. – Екатеринбург, 2006. – С. 180-189.

⁵ Ворошилова М.Б. Кўрсатилган мақола.

uyg'un matnga tipik misol bo'la oladi. Teleekranda namoyish etiladigan reklamalarda uch turdagi madaniy-semiotik maydon: tasvir, musiqa va matn uyg'unlashuvini kuzatish mumkin. Kinomatnlarda ham og'zaki matn, tasvir va musiqa uyg'unligi tomoshabin ruhiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Yuqorida aytilganidek, bu kabi matnlar funksional yaxlitlikni hosil qiladi. Psixolingvistikada retsipientlarning ana shu yaxlitlikni qabul qilish qobiliyatlari tadqiq qilinadi.

Psixolingvistikaga doir adabiyotlarda qayd etilgan shakliy uzilish (rus tilida: skvajnost) ham matnga oid qiziqarli hodisalardan biridir. Ma'lumki, matnda ketma-ket kelgan jumlar mazmunan o'zaro bog'liq bo'ladi. Ana shu bog'liqlik kutilmaganda uzilib qolishi mumkin. O'.Hoshimovning "O'zbek ishi" deb nomlangan hikoyasidan olingan quyidagi parchada mana shu hodisani ko'rish mumkin: *Yo'q, Jumanov Koryaginga emas, deraza tomon intildi. Soqchi eshikdan kirguncha bir hatlab deraza rahiga cho'kkalab oldi. SHu alpozda bir soniya, atigi bir soniya Koryaginga qaradi. Hozirgina ko'zlarida yonib turgan g'azab ifodasi o'rnida shu qadar chuqur, unsiz nafrat, nochorlik, iztirob... shu qadar teran hayrat bor ediki, Koryaginning yuragi orqaga tortib ketdi.*

*– Jumanov! – Vasiliy Stepanovich deraza tomon talpindi. – Jumanov ...
Gapini tugatmasdan derazadan yana g'ira-shira oqshom yorug'i ko'rindi.*

Soqchi ikkovlari baravar yugurib borishdi. Chuqurlikdagi hovlida, hovuz chetidagi simyog'ochda lampochka yonib turar, Jumanov yaproqlarini chang bosgan archa tagida g'ayritabiiy yonboshlab yotar edi: boshi hovuzning sement qirrasida, gavdasi qirg'oqda... Koryagin uning jon taslim qilayotib, oyog'ini uch-to'rt silkitganini ko'rdi.

Berilgan mikromatnda xalqimiz kechmishidagi fojiali davrlardan biri – paxta yakkahokimligi vaqtida "o'zbek ishi" deb atalgan mash'um harakatning qurboniga aylangan shaxs, ya'ni sovxoz direktori Jumanovning tergovchining ma'naviy va jismoniy qiynoqlariga chidolmasdan, o'zini tergov bo'layotgan binoning yuqori qavatidan pastga tashlab halok bo'lishi epizodi tasvirlangan. Agar matndagi jumlariga mantiqiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, uning ikki o'rnida muayyan

jumlalar tushirib qoldirilganini ko‘rishimiz mumkin: bu – *Jumanov!* – *Vasiliy Stepanovich deraza tomon talpindi.* – *Jumanov...* jumlasidan keyingi ***Jumanov deraza rahidan o‘zini pastga otdi*** hamda *Soqchi ikkovlari baravar yugurib borishdi* jumlasidan oldingi ***Koryagin va soqchi yuqori qavatdan pastga tushib, hovliga chiqishdi*** jumlaridir. Axborot izchilligi ushbu jumalarni taqozo etsa-da, ularni matn tarkibida qo‘llamaslik matnning mazmuniy yaxlitligiga ta’sir etmagan: retsipient muallif nazarda tutgan propozitsiyalarni matnda ifodalangan vaziyatdan kelib chiqib, o‘zi tiklashi mumkin. Implikatsiyaning bu usuli badiiy matnlarda ko‘p uchraydi. Demak, shakliy uzilish, aytish mumkinki, matn va retsipient munosabatlariga, ya’ni matnning mazmuniy idrokiga oid hodisa bo‘lib, aborot siqqligining yuzaga kelishiga xizmat qiladi.

Matnning psixolingvistik xususiyatlaridan biri interpretativlik hisoblanadi. V.P.Belyanin fikriga ko‘ra, har bir retsipient muayyan matn haqida o‘z interpretatsiyasiga ega bo‘lishi mumkin. Matn idroki natijasida yuzaga keluvchi interpretatsiya xarakteri faqat matnning emas, retsipientning ham psixologik xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Muallif bilan retsipient psixologik jihatdan qanchalik yaqin bo‘lsa, ularning matn haqidagi interpretatsiyasi shunchalik muvofiq bo‘ladi¹.

¹ Белянин В.П. Основы психоллингвистической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. – С. 8.

II.3. Matnda lingvokulturologik birliklarning aks etishi

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturologiya (*lot. lingua* – til + *lot. cultura* – ishlov berish + *yun. logos* – ta’limot) tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o‘zaro aloqasi va ta’sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o‘rganuvchi sohadir¹. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, mazkur soha XX asrning so‘nggi choragida shakllandi, “lingvokulturologiya” termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘ldi². Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar³. Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyayn, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi⁴.

Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi⁵.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o‘ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o‘rganish lingvokulturologiyaning asosiy

¹ Сабитова З.К. Лингвокультуроология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 8-9.

² Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.

³ Қаранг: Нурмонов А. Оврупода умумий ва қиёсий тилшуносликнинг майдонга келиши // Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 23-40; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – 5-сон. – Б. 3-16.

⁴ Қаранг: Маслова В.В. Лингвокультуроология в система гуманитарного знания / Критика и семиотика. Вып. 4. – 2004. – С. 238-243; Махмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 3-16.

⁵ Маслова В.А. Лингвокультуроология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

maqsadidir¹. Mazkur sohaning obykti til va madaniyat, predmeti esa o‘zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi². Bunday til birliklari *lingvomadaniy birliklar* termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmuyi bo‘lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo‘lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Til va madaniyatning o‘zaro ta’siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokonseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalar ham o‘rganiladi. Shu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi³.

Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandır. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”⁴. G.G.Slishkinning fikriga ko‘ra, “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvokulturologiya markazining madaniyat fenomenidan iborat bo‘lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi”⁵. Lingvokulturologiyaning o‘rganish obykti haqidagi fikrlar borasida bir to‘xtamga kelingan bo‘lsa-da, ayrim munozarali qarashlar ham yo‘q emas. Masalan, V.N.Teliyaning fikriga ko‘ra,

¹ Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 10.

² Сабитова З.К. Ўша китоб. – Б. 9.

³ Сабитова З.К. Ўша китоб. – Б. 9-10.

⁴ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.

⁵ Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Academia, 2000. – С. 128.

lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi. V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi, deb hisoblaydi. Shuningdek, V.N.Teliya lingvokulturologiya obyektini umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlasa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozim ekanligini ta'kidlaydi¹.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi². Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyekt va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan³.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko'rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko'pincha miflar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik konsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda, asosan, badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy aspektdagi ishlar. Bunda, asosan, rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog'liq jihatlari. Bunda talabalarda lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Masalan, Z.I.Solievanning nomzodlik ishi o'zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya'ni axloqiy-ta'limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan⁴.

¹ Бу ҳақда қаранг: Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение: Учебное пособие. – М.: Флинта, 2011. – 176 с.

² Маслова В.А. Лингвокультуроология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.

³ Маслова В.А. Кўрсатилган ўқув қўлланма.

⁴ Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика предложения в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – С. 25.

Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin¹.

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma‘nosi “aqliy-ma‘naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmuyi (*madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati*)” demakdir. Shunday bo‘lgach, nutq madaniyatining o‘rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti tamoman boshqadir”².

Lingvokulturologiyaning bevosita matn bilan bog‘liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, matn ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiq obyektlaridan biri hisoblanadi. “Lingvokulturologiya” kitobining muallifi V.A.Maslova bu borada quyidagicha yozadi: “Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, matn til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir. Lingvokulturologiya esa tilni madaniy qadriyatlar tajassumi sifatida tadqiq etadi”³.

¹ Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

² Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 10.

³ Маслова В.А. Лингвокультуроология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – С. 5.

V.A.Maslovaning, xususan, o‘xshatish – matnlar haqidagi fikri ham e‘tiborga molikdir. Olima o‘xshatishlarning matn yartilishidagi o‘rniga yana to‘xtalib, ular matnda struktur-kompozitsion vazifani bajarishi va matn kogerentligini ta‘minlovchi vosita maqomida bo‘lishini aytadi¹. Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, o‘xshatish va uning qisqargan shakli bo‘lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til sohiblarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo‘la oladi. O‘xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllari (ularni matnning pretsedent shakllari tarzida ham baholash mumkin)ni aniqlash imkoniyatini ham beradi.

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog‘liq yana bir hodisa bu pretsedent matn masalasidir. Tadqiqotchi O.E.Artemovanning so‘zlari bilan aytganda, pretsedent janrlar madaniy axborotning “akkumulyatori”dir².

Pretsedent matnlar pretsedent birliklarning bir turi bo‘lib, o‘zida muayyan millat til egalariga xos bo‘lgan lisoniy xotirani aks ettiradi. Hozirgi vaqtda xususan rus tilshunosligida bu borada ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog‘liq yana bir masala sentensiyadir. Sentensiya axloqiy-ta‘limiy xarakterdagi til birligi bo‘lib, o‘zida intertekstuallikni namoyon etadi³.

Z.I.Saliyeva ingliz va o‘zbek tillaridagi sentensiyalarning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda o‘rganar ekan, muayyan xalq tarixida katta o‘rin tutgan mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan didaktik g‘oyalarning yozuvchi tomonidan o‘zgargan shaklda ifodalanishini intertekstuallikning bir ko‘rinishi sifatida baholaydi. Tadqiqotchi bunga misol sifatida Oybekning “Navoiy” romanida Navoiy tomonidan aytilgan didaktik mazmunli matnlarni keltiradi⁴. Bu xususiyatni o‘zbek tilida yaratilgan boshqa asarlarda ham ko‘rish mumkin.

¹ Маслова В.А. Кўрсатилган асар. – С. 32.

² Артемова О.Е. Лингвокультурная специфика текстов прецедентного жанра “лимерик”: На материале английского языка: Дис... канд. филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2004. – С. 24.

³ Сентенция ҳақида қаранг: Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: УзГУМЯ, 2010. – 25с.

⁴ Салиева З.И. Кўрсатилган автореферат. – Б. 14.

Ma'lumki, lingvokulturologiyada L.Vaysgerber tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan olamning lisoniy manzarasi tushunchasi alohida o'rin tutadi. Olamning lisoniy manzarasi voqelikni idrok etishning tilda muhrlangan va muayyan lisoniy jamoa uchun xos bo'lgan tuzilishi, olamni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usulidir¹. Har bir tabiiy til olamning o'ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi.

Fikrimizcha, matn-o'xshatishlar, matn-metaforalar hamda tarkibida pretsedent birliklar, etalonlar, nutqiy etiketlar mavjud bo'lgan matnlarni o'rganish muayyan etnosga xos bo'lgan olamning lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratishda eng muhim manba hisoblanadi.

¹ Қаранг: Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. – №3. –Б. 3-12.

XULOSA

Til o‘zi bilan bog‘liq bir qancha hodisalar bilan qanchalik uzviy aloqada bo‘lmasin, eng avvalo, ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyatning aloqa-aralashuv ehtiyojini qondirish talabi bilan yuzaga kelgan va ana shu jamiyatning taqdiri, tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, madaniyati va hokazolar bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi.

Ijtimoiy fanlar bilan gumanitar fanlar o‘rtasida katta to‘siq, chegara mavjud emas. Ayni bir fan ham ijtimoiy, ham gumanitar fanlarga aloqador bo‘lishi mumkin. Masalan, tilshunoslik tilning aloqa vositasi sifatidagi vazifasini, ijtimoiy mohiyatini ochish bilan ijtimoiylik xususiyatiga ega bo‘lsa, muayyan individ nutqining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bilan gumanitarlik kasb etadi.

Til ham borliqdagi kishilarning aloqa vositasi sifatida inson bilimiga beriladi. Shunday ekan, har qanday fan, jumladan, tilshunoslik ham falsafa bilan uzviy bog‘lanadi. Barcha fanlar kabi tilshunoslik uchun ham u yoki bu falsafiy yo‘nalish tadqiqot metodologiyasi bo‘lib xizmat qiladi.

Tilshunoslik mantiq fani bilan ham uzviy aloqadordir. Ularning aloqadorlik tomoni shundaki, har ikkisi ham tafakkur bilan bog‘lanadi. Chunki tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lgan til tafakkur bilan o‘zaro munosabatda.

Til jamiyatning aloqa – aralashuv quroli sifatida jamiyat tarixi bilan uzviy aloqadadir. Chunki jamiyatda ro‘y bergan har bir o‘zgarish shu jamiyatning tilida o‘zining ma‘lum izini qoldiradi. Shuning uchun jamiyat tarixning muayyan jihatlarini yoritishda tarixiy hujjatlar, yozma yodgorliklar ojizlik qilib qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga kelishi mumkin.

Tilshunoslik badiiy adabiyot bilan ham uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo‘lib qolmay, balki tinglovchiga ta‘sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an‘anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o‘rganish obyektidir.

O‘zbek tili materiallari o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma asosida keng aspektda o‘rganilmagan bo‘lsa-da, kognitiv, psixolingvistik,

lingvokulturologik xarakterdagi bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda, asosan, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyaning nazariy masalalari, o‘zbek tilida muayyan konsept ifodasi, mazmuniy persepsiya, bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlari va intertekstuallik muammolari tadqiq etilgan. Matnning kognitiv-semantik, psixolingvistik, lingvokulturologik xususiyatlari, jumladan, uning yaratilishi va mazmuniy idrokiga oid masalalar esa tilshunosligimizda yetarli darajada tadqiq qilingan emas.

Matn yaratilishining antropotsentrik talqini, asosan, kognitiv va psixolingvistik tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Kognitiv nuqtai nazarga ko‘ra matn – mental tuzilmaning tilga transformatsiyasi bo‘lib, butundan qismga qarab harakatlanuvchi yaxlit tuzilmaning verbal ko‘rinishidir. Kognitiv yondashuv matn yaratilishini “muallif – matn – matndan tashqaridagi

Psixolingvistik nuqtayi nazardan matn yaratish va uning mazmuniy persepsiyasi individning nutqiy tafakkuri mahsuli, obyektiv borliqni til tizimi vositasida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda matnning shakli va mazmunini tadqiq etishda muayyan kommunikativ vaziyat qatnashchisi – konkret shaxsning psixologik xususiyatlari ham e‘tiborga olinadi.

Lingvokulturologik yondashuvlarga ko‘ra, matn muayyan xalqning madaniy qadriyatlarni, milliy-mental fikrlash tarzini namoyon etuvchi lingvomadaniy birlikdir. Xususan, pretsedent birliklar madaniy kodlarni avloddan avlodga olib o‘tuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 173 б.
2. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 11–15.
3. Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35-39.
4. Боймирзаева С. Матн модаллиги. – Тошкент: Фан, 2010. – 151 б.
5. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2008. – 159 б.
6. Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари). – Андижон, 2012. – Б. 212-220.
7. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3. – Б. 19-24.
8. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.
9. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 3-8.
10. Маҳмудов Н. Фан тили ва тил фани // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 5. – Б. 3-10.
11. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015.-№3. – Б. 3–12.
12. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – 94 б.
13. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент, 1978. – 82 б.

14. Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Тошкент: Шарқ, 2005.– 168 б.
15. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 233 б.
16. Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2009. – № 6. – Б. 104-107.
17. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012.– 358 б.
18. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 371 б.
19. Нурмонов А. Лингвистик нисбийлик ва лингвистик детерминизм назариялари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 5. – Б. 10-19.
20. Раҳимов А. Тилни парадигмалар асосида ўрганиш муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 2. – Б. 20-25.
21. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.
22. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – 285 б.
23. Turniyozov N., Yo‘ldoshev B. Matn tilshunosligi. – Samarqand: SamDU nashri, 2006. – 96 b.
24. Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2004. – 496 б.
25. Ғуломов А., Асқарова М.А. Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1961. – Б. 142.
26. Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – 24 б.

27. Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 320 б.
28. Бурханов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиқлар прагматикаси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2008. – 26 б.
29. Маслова В. Лингвокультуроология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208 с.
30. Махмудов Н.М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент: ИЯЛ АН РУз, 1984. – 259с.
31. Муҳамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2007. – 46 б.
32. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2000. – 47 б.
33. Турниёзова Ш. Ҳозирги ўзбек тилида матн шаклланишининг деривацион хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2010. – 26 б.
34. Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан.д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2009. – 48 б.
35. Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2009. – 314 б.
36. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 680 б.
37. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4-жилд.– Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608 б.

38. Қурбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихоллингвистик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзДЖТУ, 2009. – 25 б.

39. Ҳайдаров Ш.М. Бадиий матнда парцеллятив конструкцияларнинг қўлланилиши: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2011. – 26 б.

40. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2004. – 283 б.